

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK 74.200, 371.**

Ubaydullayeva Gulnoza

**Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan
foydalanish texnologiyasi**

5A110701-“Boshlang‘ich ta’lim”

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
p.f.n., dots. Oripova N.X**

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning nazariy asoslari	
1.1. Barkamol avlod tarbiyasining mazmuni va mohiyati	8
1.2. Milliy ta'lim-tarbiya tarixida barkamol shaxs tarbiyasi muammosining yoritilishi.....	14
1.3. Ertaklar va maqollarda farzand tarbiyasi muammosi	21
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	27
II BOB. Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	
2.1. Boshlang'ich sinflarda xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning mavjud ahvoli.....	28
2. 2. O'tmishda bola tarbiyasida qo'llanilgan usullar.....	37
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	49
III BOB. Boshlang'ich sinflarda xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning samaradorlik darajasi	
3.1. Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	50
3.2. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda barkamol avlodni tarbiyalash yo'llari.....	62
3. 3. Tajriba-sinov ishlari tahlili va samaradorligi.....	74
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	80
Umumiy xulosa va tavsiyalar	81
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	84
Ilovalar	90

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga olib keldi. Ma'lumki, har bir jamiyatning ongli qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi uchun qayg'uradi, g'amxo'rlik qiladi. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining islohoti "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [2] talablari asosida davlat tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bizga ma'lumki, xalqimizning aksariyat qismi musulmon diniga e'tiqod qilganligi bois, uning dunyoqarashida insonparvarlik g'oyalari hukmronlik qiladi. Shuning uchun, amalga oshirilayotgan islohotlarda sharqona qadriyatlar, xalq pedagogikasidan foydalanish o'ziga xos ustivorlik kasb etgan. Bu haqda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[2] ning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" deb nomlangan qismida ta'lim-tarbiya tizimining milliy g'oyalar asosida yangilanishda, ta'limning milliy yo'naltirilganligi – ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash ga alohida e'tibor qaratilgan

Demak, bugungi kunda uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining milliy asosda yangilanishi tabiiy zaruriyatdir. Chunki, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasida inson barkamolligini ta'minlash haqidagi g'oyalar mavjudki, ulardan foydalanmaslik o'zlikni unutish demakdir. O'zligini unutgan millat esa millat bo'la olamaydi. Shunday ekan, yoshlarni barkamol inson qilib shakllantirishda ayniqsa xalq pedagogikasining o'rni va roli nihoyatda kattadir.

Xalq pedagogikasi fani xalq og'zaki ijodi namunalarida olg'a surilgan pedagogik g'oyalar vositasida barkamol insonni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish muammolari xususida bahs yurituvchi fandir.

Xalq pedagogikasi ilmi har bir xalqning hayotiy faoliyati, ijtimoiy taraqqiyoti jarayonida asrlar osha to'planib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda o'tib kelgan. U

xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribalari maxsuli bo'lib, hayot sinovlarida o'zini oqlagan empirik bilimlar majmuidir.

Prezident I.A. Karimov: “Ma’rifatga intilish xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir”, - degan edi [6; 68-bet]. Ana shu fazilatning erkin ifodasini etnopedagogika manbalarida ko’rishimiz mumkin. Chunonchi, etnopedagogikaga doir biror-bir manba yo’qki, unda ilm, ma’rifat, ezgulik, aqliy va jismoniy komillik, ma’naviy-ahloqiy go’zallik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do’slik va boshqa sifatlar targ’ib etilmagan bo’lsa. Afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo’shiqlar singari manbalarda yuqorida qayd etilgan tarbiyaviy sifatlar xalqning o’zi yaratgan qahramonlar timsolida targ’ib etiladi.

Xalq pedagogikasi tarixan xalqning o’zi, uning ijtimoiy ongi, tafakkuri, turmush tarzi bilan bakatmi ravishda shakllangan. U hozirgi zamon pedagogikasi ilmining ibtidosi hisoblanadi. Xalqning o’zi hayot ekan uning pedagogik fikri, o’z milliy pedagogik qarashlari ham yashayveradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yosh avlodga yaxshi ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, barkamollik sifatlarini shakllantirish g'oyalari xalq pedagogikasining o'zida mavjuddir. Shuningdek, tarixiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, muqaddas kitob bo'lmish “Avesto”[13]da barkamol shaxsni tarbiyalashning o'ziga xos tizimi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra yaxshi fikr, yaxshi so'z va yaxshi ish inson kamolotini belgilovchi muhim ma'naviy-axloqiy mezon sifatida e'tirof etilgan. Fikr, so'z va ish (amal, faoliyat) birligi hamda uning in'ikosini ta'minlash g'oyasi tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlarida ham shaxs barkamolligiga bo'lgan yondashuvlar mazmunining asosini tashkil etadi.

Islom dini g'oyalariga ko'ra esa, “qo'li va tili bilan boshqalarga ozor bermaslik”, “halol va harom amallarning farqiga borish”, islomiy amallarni ado etish, e'tiqod mustahkamligi barkamol shaxs qiyofasini belgilovchi sifatlardir.

Sharq mutafakkirlari – Abu Nasr Forobiy [27], Abu Ali ibn Sino [33], Alisher Navoiy [57], Abdulla Avloniy [14] va boshqalarning asarlarida barkamol shaxs ega bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar majmui, ularning mohiyati haqidagi qarashlar yoritilgan.

U.Abduvahobov [11], A.Aliyev [19], B.Ziyomhammadov [84], M.Imomnazarov [35], T.Mahmudov [47], J.Tulenov [72], A.Erkayev [25], E.Yusupov [83], E.G‘oziyev [90] va boshqalar tomonidan shaxs kamoloti negizida aks etuvchi ma’naviy-axloqiy sifatlar, ularning milliy-etnik, ijtimoiy-psixologik jihatlarini, “barkamol”, “barkamollik” tushunchalarining falsafiy, tarixiy va psixologik talqini o‘z ifodasini topgan. M.Ochilov [60], U.Mahkamov [45], O.Musurmonova [53], S.Nishonova [58] asarlarida barkamol shaxs tarbiyasi, uni samarali tashkil etish, shaxsda barkamollik sifatlarining shakllanishida oila, ta’lim muassasalari hamda jamoatchilik o‘rni va roli, shuningdek, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlash masalalari o‘rganilgan.

Ushbu muammo universitetimiz etakchi professor - o‘qituvchilari tomonidan ham o‘rganilmoqda. Ular o‘z tadqiqot ishlarini monografiya, qo‘llanma va tavsiyanomalar ko‘rinishida chop ettirganlar. Jumladan, universitetimiz pedagog olimlardan T.G‘afforova [91], N. Oripovalar [59] o‘z tadqiqot ishlarida bola tarbiyasida xalq pedagogikasining ustunligini, uning keng imkoniyatlarga ega ekanligini qayta-qayta ta’kidlaganlar. Ammo boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirish texnologiyasi bugungi kunda yaxlit tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan. Shu bois tadqiqotimiz mavzusini “Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanish texnologiyasi ” tarzida tanladik.

Tadqiqotning maqsadi: Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanishning nazariy asoslarini aniqlash va uni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti: boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanishning mazmuni, shakl va usullari.

Tadqiqotning vazifalari:

- barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanish pedagogik muammo ekanligini ilmiy asoslash;
- xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanishning mavjud holatini tahlil qilish;
- xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanishning didaktik va texnologik imkoniyatlarini ishlab chiqish;
- o‘quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda tarbiyaviy tadbirlarning ahamiyatini aniqlash;
- barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot farazi: - Agar:

- barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanish pedagogik muammo ekanligini ilmiy asoslansa;
- xalq pedagogikasining paydo bo'lishi va uning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinsa;
- o'quvchilarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda xalq pedagogikasidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari ochib berilsa;
- ta'lim jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlansa, kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Tadqiqot metodlari: falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish; pedagogik kuzatish; sotsiologik metodlar (anketa so‘rovi; suhbat; intervyu); test so‘rovi va boshqalar.

Tadqiqotning metodologik asosi: qadimiy yozma manbalar, islom ta'limoti, Sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan asarlar, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o‘z ifodasini topgan barkamol shaxsni shakllantirishga oid qarashlar, Respublika Prezidenti I.A.Karimovning barkamol shaxs va uning ma’naviy-axloqiy qiyofasida aks etuvchi sifatlar haqidagi nazariy yondashuvlari, G‘arb falsafasining shaxs kamoloti to‘g‘risidagi andozalari, shuningdek, falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarining ilg‘or tajribalaridan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanish pedagogik muammo ekanligi; xalq pedagogikasining paydo bo'lishi va uning tarixiy rivojlanishi tahlili; o'quvchilarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda xalq pedagogikasidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari; ta'lim jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Pedagogika nazariyasi va tarixi fani xalq pedagogikasidagi barkamol avlod tarbiyasiga oid g'oyalar, yondashuvlar hamda ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan boyitildi. Shuningdek, xalq pedagogikasining rivojlanish tarixi, uning turlari o'rganildi va tadqiq qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: xalq pedagogikasidagi farzand tarbiyasiga oid g'oyalardan foydalanishga oid ishlab chiqilgan g'oyalardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kadrlar malakasini oshirish kursi tinglovchilari, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan oliy o'quv yurti talabalari foydalanishlari mumkin.

Natijalarning chop etilganligi: muallif tomonidan dissertatsiya mavzusiga doir respublika va viloyat ilmiy-amaliy konferensiyalarida jami 6 ta ilmiy-metodik maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 80 betni tashkil etadi.

I BOB. Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning nazariy asoslari

I.1. Barkamol avlod tarbiyasining mazmuni va mohiyati

Barkamollik sari intilish, barkamol avlodni tarbiyalash muammosi Sharq pedagogikasining asosini tashkil etadi. Ota-bobolarimiz va momolarimiz tomonidan qoldirilgan pandnomalar, mashhur allomalarning asarlarini tahlil qilganimizda bu masalaga qayta-qayta to'xtalganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarining ommaviy janrlari: maqol, afsona, ertak, rivoyat, matal kabilarda barkamol inson obrazi hamda uning sifatlari o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosi ekan, avvalo barkamollik tushunchasining mazmuni va mohiyatini anglab olmoq darkor.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” [88; 168-169]da “barkamol” tushunchasining lug'aviy ma'nosiga “Jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga erishgan, voyaga yetgan”, “yetuklikka erishgan, kamol topgan, bakamuko'st, mukammal”, barkamollik tushunchasiga esa “etuklik, mukammal holati; kamolot cho'qqisi”, “to'kis”, “mukammal” degan ma'nolarni anglatishi ta'kidlanadi.

Adabiyotshunos olimlardan biri N.Komilovning ta'riflariga tayanib: “Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot”, - deb ta'rif beradi [40;272-bet].

Pedagog olimlardan S.Nishonova mustaqillikdan keyingi davrda birinchilardan bo'lib barkamol shaxs mavzusini tadqiq etgan olimlardan hisoblanadi. U barkamol inson tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: “Barkamol inson – bu o'zida ma'naviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, irfoniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, yuksak iste'dod va salohiyatga ega bo'lgan, ma'naviy jihatdan yuksak, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin, ijodkor shaxs”.

Muallif “barkamol shaxs” tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan ta’riflash bilan birga uning yaxlit modelini ham yaratadi va bu model bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda asos bo’lib xizmat qilmoqda. S.Nishonova [58; 7-8-betlar] barkamol shaxs tarbiyasida tarbiyaning tarkibiy qismlarini aqliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, sog’lom avlod tarbiyasi, estetik tarbiya, ijodkorlik tarbiyasi, mehnat tarbiyasi va kasbga yo’llash, huquqiy tarbiya, ekologik tarbiya, iqtisodiy tarbiyani asos qilib olar ekan, o’z navbatida har birida shakllanishi zarur bo’lgan asosiy xislatlarni zamonaviy ta’lim-tarbiya mazmuni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, ijtimoiy talablarga tayangan holda tartib beradi.

Masalan, aqliy tarbiyada tafakkurni rivojlantirish, zehnni tarbiyalash, xotirani mustahkamlash, zukkolik, idroklilik, zakovat, topqirlik, omilkorlik kabi sifatlarni tarbiyalash g’oyalari an’anaviy pedagogikada umuman eslatilmagan. Yoki an’anaviy pedagogikada axloqiy tarbiya o’rganilgan bo’lsa, S.Nishonova shaxsning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini uyg’unlikda olib borishni taklif etish bilan birga shaxsda quyidagi xislatlarni tarkib toptirish zarurligini qayd etadi: iymonlilik, e’tiqodlilik, qanoat, donolik, mehr-oqibat, yaxshilik, nafs meyori, vijdonlilik, milliy g’urur, iltifotlilik, hilm, hayo, iffat va boshqalar.

Sog’lom avlod tarbiyasida esa xalq tabobati namunalari bilan tanishtirish, dilovarlik (jangovarlik) tarbiyasi, sobitlik, faollik, tezkorlik, jo’shqinlik, dovyuraklik, vaqtdan to’g’ri foydalanish; ijodkorlik tarbiyasida ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va tasavvurni rivojlantirish, fikrlar tafovuti va xilma-xilligi, kuzatuvchanlik va hokazolar nazarda tutiladi.

Muallif, shuningdek, intellektual qobiliyatni shakllantirishda yetakchi asos bo’luvchi ijodkorlik sifatini tarbiyalash maqsadga muvofiqligiga alohida urg’u beradi.

Ko’rinib turibdiki, S.Nishonova barkamol shaxs tarbiyasida milliy qadriyatlar sifatida ulug’lanib kelinayotgan muhim insoniy xislatlarni shakllantirishga alohida e’tibor berishni uqtiradi va bu g’oya pedagogikada yangi mazmun kasb etdi. Shu bilan birga shaxslik xislatlarini shakllantirishda muallif

tavsiya etgan shakl, metod va vositalarda ham milliylik zamonaviylik bilan uyg'unlashib ketgan. Masalan, o'git-nasihat, muammolarni hal etish, rag'batlantirish, ishontirish, qiyoslash, munozara, bahs, debatlar kabi metodlar; milliy va umuminsoniy qadriyatlar, o'quv-tarbiya jarayoni, oila, mahalla, udumlar va an'analar, ommaviy axborot vositalari, badiiy adabiyot kabi vositalar shular jumlasidandir.

Rus olimi I.P.Podlasiy shaxs tarbiyasi va uni shakllantirish haqida so'z yuritar ekan, avvalo shaxsni aqliy, axloqiy, emotsional estetik, va jismoniy rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatini har tomonlama namoyon etishi uchun imkoniyat yaratish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni pedagogikaning asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Muallifning qayd etishicha, shundagina shaxs ongli ravishda fuqarolik nuqtai nazariga ega bo'ladi, hayotga va mehnat qilishga, ijodiy faoliyat yuritishga, o'z-o'zini boshqarishga va vatani uchun xizmat qilishga, uning rivojlanishi uchun kurashishga tayyor turadi.

I.P.Podlasiyning fikricha, "Barkamol inson – tarbiyaning oliy maqsadi, unga intilib yashaydigan ideal. Bu ideal tarbiyaning buyukligi va insonning tabiatan nomukammalligini anglash hamda tarbiyaning buyukligiga ishonch asosida paydo bo'lgan. Jamiyatning maqsadi barcha insonlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat" [65; 136-bet].

Bizning fikrimizcha, barkamol avlod – bu aqlan va ruhan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, o'zligini tanigan, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxsdir.

Demak, insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudod sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilar ta'sir etadi.

Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

Bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi, o'quvchilar yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Tadqiqotchilarning fikrlariga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhimdir:

- o'quvchilarni barkamol insonlar etib tarbiyalashda xalq pedagogikasidagi farzand tarbiyasiga oid g'oyalardan foydalanish;
- o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish;
- o'quvchilarning har biriga individual yoshdashgan holda ularning kundalik faoliyatini to'g'ri tashkil etish;
- yosh avlodning kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirish va boyitish;
- o'quvchilarning estetik tasavvurlarini shakllantirish;
- o'quvchilarni mehnatsevarlikka o'rgatish;
- bolani o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga undash;

Barkamol shaxsni tarbiyalashda avvalo axloqiy tarbiyaning o'rni va roli kattadir, buning uchun avvalo muomala madaniyati, hatti-harakatning jamiyat talabiga mos holda rivojlantirish, o'quvchi ongiga axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuyg'ularni shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Shuningdek, barkamol inson ma'naviyatli, bilimli, ma'lum kasb-hunar egasi, Vatanparvar, o'z navbatida sodiq fuqarodir. U o'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, o'z yurtidan g'ururlana oladigan, o'z Vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos o'rin tutadi. U jamiyat tomonidan tan olingan tartib-qoidalar bo'lib, kishilarning xatti-harakatlarini tartibga soladigan tamoyil sanaladi.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs rivojlanishining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloqsiz, axloqiy meyorlarsiz shaxsning ruhiy, jismoniy va ma'naviy yetukligi shakllanmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish;
- 2) ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ko'nikma va odatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o'z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg'unligi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo'lgan hurmat-e'tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarining e'tiqodga aylanishi va e'tiqodning tizimli bo'lishini ta'minlash va ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Estetik (nafosat) tarbiya talabalar tomonidan estetik bilimlarning egallanishi, ularda estetik madaniyatni tarkib toptirish, voqelikka estetik munosabatlarni shakllantirish, estetik his-tuyg'uni rivojlantirish, hayot go'zalliklari, tabiat va mehnatga muhabbatni tarbiyalash; estetik idealni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatni tashkil etishda estetik qonuniyatlariga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda uning jismonan to'g'ri rivojlanishi, o'z salomatligini mustahkamlashi; aqliy va jismoniy faoliyatning yuqori darajada bo'lishiga erishish; gigiyenik malaka va ko'nikmaga

ega bo'lishi; turmush tarzini mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil etish; jismonan sog'lom bo'lib, o'ziga va o'zgalarga quvonch baxsh etish, zararli odatlardan saqlanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar o'rtasida mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy va umumbashariy an'alariga tayanish, ustoz-shogird, oilaviy mehnat va hunarmandchilikning eng samarali metod va usullaridan foydalanish, zamonaviy kasb-hunarlar asoslarini o'zlashtirish, ular tomonidan mehnatning shaxs rivojlanishida asosiy omillaridan ekanligini anglanishiga erishish muhim sanaladi.

Shuningdek, barkamol shaxsning shakllanishida ekologik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalar ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda barkamollik sifatlarini o'quvchilarda shakllantirish va uni tizim sifatida tashkil etish davr talabidir. Insonda yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi.

Pedagogik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishini ta'minlash, uning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarish, unda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

1.2. Milliy ta'lim-tarbiya tarixida barkamol shaxs tarbiyasi muammosining yoritilishi

Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha davrlarida ham farzand tarbiyasi dolzarb muammo bo'lib kelgan. Kishilar goh u goh bu yo'sinda bola tarbiyasi bilan shug'ullanganlar.

Ayni damda esa fan-texnika, texnologiyaning shiddat bilan rivojlanishi, shaxs ehtiyoj va imkoniyatlarining muntazam ortib borishi natijasida davlat va jamiyatning yosh avlod tarbiyasiga, bilim saviyasiga qo'yayotgan talabi ham o'zgarib bormoqda. Bizga ma'lumki, XXI asr axborot asridir. Axborot asrida turli

ham ijobiy, ham salbiy axborotlar oqimi shiddat bilan shaxs ongiga o'z ta'siri ko'rsatadi. Yoshlar ongini turli salbiy ta'sirlardan himoya qilishda xalq pedagogikasining boy tajribasidan foydalanish bugungi kunning dolzab vazifalaridan biridir.

Sharqona tarixga nazar tashlar ekanmiz, xalq pedagogikasida farzand tarbiyasi, uning usullari, shakllari muhim yo'nalishlari haqida qiziqarli va dolzarb fikrlar bayon qilingan. Jumladan, ertaklar, maqollar, rivoyatlar, hikoyatlar, doston va boshqalarda farzand tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari ochi berilgan.

Tarbiyaning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng qadim zamonlariga borib taqaladi. Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnatga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mustaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Materialistik ta'limotga ko'ra ibtidoiy tuzum davrida tarbiya mehnat jarayonida vujudga kelgan, jamoada amalga oshirilgan; yoshlarga mehnat ko'nikmalari, jamoaning urf-odatlarini, marosimlarini bajarish o'rgatilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining urug'chilik bosqichida tarbiya ijtimoiy vazifa sifatida ajrilib chiqqan, ya'ni keksa yoshdagi kishilar bolalarni tarbiyalash ishi bilan shug'ullangan. Bolalarning tanasini chiniqtirish, chidamlikka o'rgatish, harbiy jismoniy mashqlarni bajartarishga ko'proq e'tibor berilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilish davrida bola tarbiyasi oilada amalga oshiriladi. Ayrim kishilar tajriba natijasida dehqonchilik, chorvachilik, tabibchilik, kasb-hunar sohalarida to'plangan aqliy, axloqiy bilimlarni o'z bolalariga, yaqin kishilar va hukmdorlarning bolalariga o'rgata boshlaydilar.

Ilohiy ta'limotga ko'ra tarbiya bu, o'zligini anglash, o'z-o'zini boshqarish, tevarak-atrofdagi olamni bilib olish, er yuzida va jannatda yashash uchun hozirlik ko'rish, tangri dargohiga intilishdan iborat. Dinlar paydo bo'lgach, diniy tarbiya muqaddas kitoblardagi g'oyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayyorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan.

Bizning ota-bobolarimiz-turkiy xalqlar qadim zamonlardan beri Markaziy Osiyoda-Turon zaminda yashab keladilar. Boysun tog'idagi Teshiktosh g'oridan,

Farg'ona vodiysidagi Selungur g'oridan topilgan yodgorliklar (odamning suyak qoldiqlari) bu elarda eng qadimgi odamlar bundan yuz ming yil va bir million yillar avval yashaganidan dalolat beradi. Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikda ham katta-katta qurg'onlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda madaniyat elementlari, din, yozuv, maktablar vujudga kelgan.

Qadimgi Turon zaminida yashagan xalqlar sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Odamlar tabiat hodisalarini ko'zatib borganlar, olam sirlari haqida ayrim kishilarga (payg'ambarlarga) vaqti-vaqti bilan g'ayb ilmi ham kelib turgan. Ayrim kishilar karomat ko'rsatib bo'lajak voqealarni oldindan ayta bilganlar. Dunyoviy ilmlardan astronomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyot vujudga kelgan. Saroylar, ibodatxonalar huzurida ochilgan maktablarda yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar o'rgatilgan. Mirzalar, qozilar, hakimlar kabi davlat xizmatchilari tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan.

Ta'lim-tarbiyaning ijodkori ham, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari etaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan to'ng'ich ustoz ham-hayot, xalqdir. Yer yuzidagi barcha kishilar singari turkiy qabilalar ham qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat-hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, jamoani, vatanni himoya qila oladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarini, orzu-istaklarini umumlashtirib maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston kabilar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a'zolariga, boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Unda ijobiy axloqiy sifatlar, fazilatlar ulug'lanadi, salbiy illatlar esa qoralanadi. O'zbek xalq pedagogikasining shaxs va jamiyat uchun foydali, ilg'or, axloqiy g'oyalari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, folklor asarlari, milliy oilaviy urf-odatlar, an'analar sifatida bizgacha etib kelgan.

O'zbek xalqi pedagogikasi asarlarida ota-ona, ustoz inson sifatida ulug'lanadi. "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l", "Ustoz otangdan ulug'", "Ota-ona bolani dunyoga keltiradi, ustoz esa uni yuksaklikka, osmonga ko'taradi" [89;165] kabi hikmatlarda murabbiy, ustozlarning mehnati, qadr-qimmati

ulug'langan.

O'zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omili, vositasidir. Turkiy xalqlar o'z bolalarini yoshlikdan uy-ro'zg'or mehnatiga o'rgatishga katta e'tibor bergan. O'zbek xalq pedagogikasi bolalarga kimki yaxshi mehnat qilsa, yaxshi buyum tayyorlasa, u yaxshi usta, degan g'oya singdirilgan. Bundan tarbiya jarayonida: “Avval bil, keyin qil”, “Avval o'rgan, keyin o'rgat”, “Aql ko'pga etkazar, hunar ko'kka”, “Ustoz shogird-jonsiz kesak”, “Ustoz ko'rmagan shogird-har maqomda yurg'alar” [89;136-bet] kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan.

Xalq doimo yosh avlodni aqlli, odobli, go'zal fazilatli inson bo'lib kamol topishini orzu qilgan va shunga intilgan.

O'zbek xalq pedagogikasida qo'llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o'zaro izzat-hurmatda bo'lish, qadr-qimmatni anglash, samimiylik, iltifotlilik, haqiqatlilik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblangan. O'zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma'naviy axloqiy ideallar, ibratli, qiziqarli o'gitlar shaklida bayon etilgan. “Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan”, “Har kim ekanin o'radi”, “Bola aziz, odobi undanda aziz” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Hikoyat. Naql qilishlaricha, podsho ayonlari bilan ovdan qaytayotganida yo'lda kelayotgan bir bolani ko'rib qoladi. Otidan tushib, bolaga salom beradi. Vazir bundan taajublanib, “Shohim nega bunday qildingiz?, -deganda u: Bu bola ustozimning nabirasi. Ustozga hurmatim tufayli unga salom berdim”, -degan ekan. Bu naqlda halqimizning ustozga, muallimga bo'lgan chuqur hurmati ifodalangan. “Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim, “Hayot ustoz, xalq muallim” kabi hikmatlar juda o'rinli aytilgan.

O'zbek xalq pedagogikasi asarlari, o'zbek oilasining bola tarbiyasi bobida to'plagan tarixiy tajribasi, milliy axloqiy qadriyatlarimiz farzand tarbiyasining bebaho manbai, bitmas tuganmas sarchashmasidir.

Zardushtiylik (otashparastlik) ta'limoti (dini) ning muqaddas kitobi-

“Avesto” [13]da Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining eramizdan avvalgi ikki minggini yillardan to oltinchi asrgacha (eramizdan avvalgi) davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, turmush urf-odatlarini, diniy, axloqiy, tarbiyaviy qarashlari yoritilgan. Bu ta'limotning asoschisi Spitama Zaradushtra eramizdan oldingi oltinchi asrda yashagan. Ko'plab tadqiqotchilarning fikricha, zardushtiylik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan xalqlar dini bo'lib, Xorazm va Sug'diyonada shakllangan, keyinchalik Eron podsholigining rasmiy diniga aylangan. O'sha davrlarda otashparastlik Eron va Turon zaminda keng yoyilgan. Yettinchi asrga kelib Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingach, zardushtiylikning ta'siri kamayadi.

“Avesto” ning pedagogik qimmatini shundaki, u ko'p asrlar davomida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish vazifasini bajargan. “Har bir kishini shunday tarbiyalash zarurki,- deyiladi “Avesto” [13] da, -u avvalo yaxshi o'qishni so'ngra yozishni o'rganib, eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi: diniy va axloqiy tarbiya; jismoniy tarbiya; o'qish va yozishga o'rgatish. Bu ta'limotga ko'ra, diniy tarbiya berish etti yoshdan boshlangan. O'g'il bolalar etti yoshga etganda ularga maxsus muqaddas ko'ylak kiydirilgan va ular muallim bilan yonma-yon quyoshga qarab turishgan, muallimga qo'shilib, “Avesto”dan ezgulik va yazshilik ma'budasiga madadkor kuchlarni ulug'lovchi duolarni aytishgan, Men zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman. Men yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi ishlarga ishonaman.

Bunday mashg'ulotlar bir kunda besh marta takrorlangan. Undan maqsad-bolalar qalbida dunyodagi barcha yaxshilik, ezguliklarning bunyodkori, ilohiy Axura Mazdaga e'tiqodini mustahkamlash; Insonlar boshiga yovuzlik va yomonliklar olib keladigan Anxura Manudan esa nafratlanish hissini tarbiyalashdan iborat bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, Yaxshilik va Yomonlik kuchlari o'rtasida muvazun kurash abadiy davom etadi. Yaxshilik kuchlariga Axura Mazda, Yomonlik kuchlariga Anxura Manu boshchilik qiladi. Insonning hayoti, baxti yoki baxtsizligi ana shu kurashning natijasiga bog'liq. Odam yaxshilikka intilishi lozim,

aks holda u yomonlik qopqoniga ilinib, abadul-abad azob-uqubatlarga muhtalo bo'ladi. Zardushtiylik ta'limotida odoblilik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, saxovatlik fazilatlarini tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bola o'n besh yoshda balog'atga etadi. Uni zardusht qonunlariga ko'ra falsafa, axloq-odobga o'rgatishgan, xudojo'y, mehnatsevar, odil bo'lishga, niyati, so'zi, ishi ezgu bo'lishiga e'tibor berishgan. Jismoniy salomatlik, ma'naviy soflik haqida g'amxo'rlik qilish, tozalikka (badanni va suv manbalarini toza tutish) rioya qilish talab etilgan. Zardushtiylik ta'limoti jonivorlarga beshafqat bo'lishni man etadi, hayvonlarni kaltaklash, qiynashni gunoh hisoblaydi, aksincha, ularni parvarish qilishni talab etadi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, yaxshi niyat, latif so'z, ezgu ishning birligi deyilganda-faqirlarga mehribonlik, musofirparvarlik, kishiga isnod keltiradigan ishlardan, birovga hasad qilishdan, o'g'rilik, talonchilik, o'zgalar molini o'zlashtirishdan, zinoga borishdan, birovning dilini og'ritishdan o'zini tiyish nazarda tutilgan. Shuningdek, insoniy burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qolmay, balki yaxshi oila va yaxshi farzand ustirish to'g'risida ham o'ylashni nazarda tutadi. Bu kitobda turmush yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi ham yaxshilanadi, ilohiy so'zlar yaxshiroq idrok etiladi, deyilgan.

Xullas, zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyo xalqlari tarixida islomgacha davrda qariyb bir yarim-ikki ming yil mobaynida umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlar qaror topishida, shuningdek, tarbiyashunoslikning shakllanishida muhim tarixiy manbalardan bir bo'lgan.

Islom ta'limoti o'tmishda yaratilgan barcha ilohiy ilmlarni, insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida o'zida mujassamlashtirdi. Qur'on va Hadislarda bayon etilgan axloqiy g'oyalar insoniyat madaniyati xazinasiga qo'shilgan o'lkan hissa ekanligi jahon miqyosida allaqachon tan olingan. Qur'on-falsafiy, huquqiy bilimlar majmuigina bo'lib qolmay, axloqiy tarbiyani qudratli manbai, vositasi, kishilarni halollik, poklik, axloq-odob, insof-diyonatga da'vat etuvchi muqaddas kitobdir. Qur'on suralarida kishilar Alloh nomidan ezgulikka,

halollikka, poklikka da'vat etiladi. Bunga amal qilganlarga jannatda huzur-halovatda abadiy yashash va'da qilinadi. Yovuzlik yo'lidan qaytmagan kishilar uchun do'zax azobi muqarrarligi eslatiladi. Bu, kishilarni yomon xulqlardan o'zini tiyishga, yaxshilikka undaydi.

Hadislar-Muhammad payg'ambarimiz aytgan o'git-nasihatlar, fe'l-atvorlari (bajargan ishlari, xatti-harakatlari) taqirlarini anglatadi. Rasulullohning turli sharoitlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so'zlari Hadis bo'lib, fe'l-atvorlari esa, ul zot bajargan va sahobalar naql qilgan amallardir. Sahobalarning Rasululloh ma'qullagan so'zlari va xatti-harakatlari taqdir deyilib, ular shariat ahkomlariga mos keladi.

Islom ta'limotida yoshlar barkamol inson bo'lib etishishlari, ayol va erkak turmushda, jamiyatda o'z mavqelarini, vazifalarini bilib, pokiza hayot kechirishlari lozimligi ta'kidlanadi. Erkaklarda g'urur, ayollarda-sharm-hayo, qizlarda-iffat, bolalarda-mehr-oqibat, halol bilan haromning farqiga borish kabi fazilatlarni tarbiyalash islom ilmining mazmunini tashkil etadi.

Hadislarda kishilarning axloqiga qo'yiladigan shar'iy talalar bayon etilgan. Ular insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga asos bo'ladi. Hadislarda farz, vojib, harom, halol kabilar bilan bir qatorda insoniy fazilatlar, axloqiy yo'l-yo'riqlar talqin etiladi, insonlik sha'niga dog' tushiradigan illatlar qoralanadi. Insoniy fazilatlar-ilm egallash, halollik, to'g'riso'zlik, adolatlilik, mehr-oqibat, ota-onani hurmat qilish, etimlarga, kambag'allarga g'amxo'rlik, saxiylik, poklik, omonatga xiyonat qilmaslik, diyonat kabi ijobiy axloqiy sifatlar ulug'lanadi. Masalan, yoshlarni ilm olishga, axloqli bo'lishga da'vat etuvchi Hadislarda bunday deyilgan: "Ilm egallang! Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida-tayanch, yolg'izlik damlarida-yo'ldosh, bahtiyor daqiqalarda-rahbar, qayg'uli damlarda-madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridur. sadaqaning afzali-mo'min kishi ilm o'rganib so'ng boshqa mo'min birodarlarga o'rgatishdir. Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar" kabilar yoshlarni axloqiy tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, Hadislarda yomon xulq, razolat, kibr-havo, adovat,

hasad, xiyonat, yolg'onchilik, munofiqlik, poraxo'rlik, buzuqlik kabi illatlar qoralanadi.

Muqaddas «Qur'on» kitobining Sajda surasida insonlarning kabrga berilish, maqtanchoqlik kabi illatlardan yeroq bo'lish lozimligi ta'kidlanadi. "Odamlarga (kibrlarnib) yuzingni burishtirmagin va yerda kerilib yurmagin ! Chunki, Alloh barcha kibrli, maqtanchoq kimsalarni suymas." [67] yoki Isro surasida siroyli amal va yaxshilik haqida so'z yuritiladi. "Agar chiroyli amallarni qilsangizlar o'zingizga yaxshilik qilgan bo'lursizlar. Agar yomon gunoh amallarni qilsangiz ham o'zingiz uchundir" [67] deyilsa, An'om surasida ham siroy amal haqida quyidagi fikr bayon etiladi: "Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar qilib qaytarilur" [67].

Qur'onda ota-onaga ko'proq yaxshilik qilish vojibligi ko'rsatiladi. Shu bilan birga boshqa kishilarga ham qarindoshlarga, qo'shnilarga, musofirlarga, xizmatkorlarga, do'stu-birodarlarga va boshqalarga ham yaxshilik qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Islom ta'limotida sabr-qanoatli bo'lish yuksak axloqiy fazilat sifatida ulug'lanadi. Sabr hamma fazilatlarining onasi, har bir fazilatning asosidir. Islomda targ'ib qilinayotgan sabr-qanoat, bu haqiqatni o'rgatish va botilni yo'qotish yo'lida uchraydigan har narsaga chidamlilik, insonlardan kelayotgan aziyatga toqat qilish va kambag'allik, kasallik, aziz kishini yo'qotish kabi qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish fazilatidir.

1.3. Ertaklar va maqollarda farzand tarbiyasi muammosi

Etnopedagogika manbalari o'z tuzilishi, qo'llanish o'rni, vazifasiga ko'ra muayyan tizimlar (guruhlar) ni tashkil etadi. Bunday guruhlarini ko'rsatish uchun ma'lum atamalardan foydalaniladi. Etnopedagogika manbalari turlari ijtimoiy taraqqiyot davomida sekinlik bilan o'zgarib boradi: ularning ba'zilar so'nishi yoki boshqasi bilan almashishi mumkin.

Etnopedagogika manbalari turlarining vujudga kelishini ijtimoiy hayot taqozo qiladi. Chunki, voqelikning o'zi voqealarga, obrazlarga boy bo'lib, xalq ijodiyoti

oldiga uni g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik mohiyatini idrok etgan holda biror shaklda ifodalashni zaruratga aylantiradi. Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsona va dostonlarni, tabiat kuchlari oldidagi ojizligi esa so'z magiyasi (afsun) ga sig'inishni paydo qildi. Demak, voqelikning muayyan xarakteri xalq ogzaki ijodida o'ziga xos ifoda shaklini vujudga keltirishga xizmat qildi.

Xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi ham u yoki bu turning yuzaga kelishiga olib keldi. Agar taraqqiyotning ilk bosqichida oddiy shakllar yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik murakkab shakllar paydo bo'ldi.

Shunday qilib, o'zbek xalq pedagogikasining janrlar turi xilma-xil bo'lsada, u boshqa xalqlar pedagogikasi tizimlaridan farq qiladi. Jumladan, barcha xalqlar pedagogik manbalari tizimida ertak, maqol, topishmoq, qo'shiq turlari bo'lsada, ruslarda doston, o'zbeklarda blina yo'q, yoki o'zbek va tojiklarda ramozon, hayitlik aytimlari, ukrain va beloruslarda kolyadkalar, ruslarda ratseyka va chastushkalar tizimlari mavjud. Bir necha xalqlardagi etnopedagogika manbalarining bir xil tizimi ham o'z xususiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Etnopedagogik asarlar janrlari o'z ijodkorlari faoliyati bilan ham bog'liq. Agar topishmoq va maqol singari turlar ommaviy xususiyatga ega bo'lsa, doston, og'zaki drama, ertak, askiya kabilar maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo, mazkur turlarga xos quyidagi tamoyillarni ta'kidlab o'tish lozim:

1. Etnopedagogika manbalari pedagogik xususiyatlarining mushtarakligi;
2. Manbalar janrlariaro o'zaro ta'sir, bir-biriga muvofiqlik va bir-birini boyitish xususiyatlari;
3. Har bir turning vujudga kelishida ikkinchi turning manba sifatida xizmat qilishi – genetik aloqa;
4. Bir turdagi asarning boshqa bir tur tarkibida uchrashi;
5. Bir turdagi asarning yana bir necha boshqa turlar tarkibida uchrashi va boshqalar.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasida manbalar tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Maqollar
2. Topishmoqlar
3. Olqish va qarg'ishlar
4. Marosim aytimlari
5. Qo'shiqlar
6. Afsona, rivoyat, naqlar
7. Ertaklar
8. Latifalar
9. Loflar
10. Dostonlar
11. Og'zaki drama
12. Askiya
13. Bolalar etnopedagogikasi va boshqalar

“**Maqol**” atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq soʻzlaridan olingan boʻlib, ommaning muayyan voqea-hodisalar, voqelik haqidagi loʻnda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, baʻzan toʻgʻri, baʻzan koʻchma maʼnoda ifodalanadi.

Maqolda ifodalangan pedagogik gʻoyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan boʻladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U oʻz shakliga koʻra ixcham, mukammal, lekin ommabop boʻladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yoʻnalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, maʼnaviy-axloqiy eʼtiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham Mehnatga muhabbat, hurmat ulugʻlanuvchi maqollarda dangasalik qoralanadi: Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda; Dangasaning kosasi oqarmas; Ishyoqmasga it boqmas ... [89;23-bet]

Vatanparvarlik, dushmanga qarshi nafrat targ'ib etiladi: Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni; Vatan gadosi – kafan gadosi; Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas ... [89; 9-bet]

Botirlik, saxiylik, adolat, insof qadrlanadi: Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan; Erni nomus o'ldiradi; Botirdan yov qo'rqr; Yo'lga chiqsang, yo'ldoshli chiq! ... [89;12-bet].

Ilmni egallash targ'ib etiladi: Ilm – aql chirog'i; Ilm ko'p, umr oz, zarurini o'rgan; Kitob – bilim manbai ... [89;136-bet]

O'zbek xalq maqollari orasida farzand tarbiyasiga oid maqollar ham borki, ular bugungi kunda ham o'z ahamiyati va qadr-qimmatini yo'qotgan emas. Hali-hamon xalqimiz shu maqollardan farzand tarbiyasida foydalanib kelmoqdalar. Boshqa turdagi maqollar kabi farzand tarbiyasiga oid maqollarda xalqimizning farzand tarbiyasiga doir qarashlari, hayotiy tajribalari, farzandning ota-ona oldidagi burchi va boshqa muhim muammolar aks etgan. Aksariyat ota-onalar farzand tarbiyasida deyarli har kuni bu maqollardan foydalanadilar va ularning bolaga ta'sir kuchi ham benihoya kattadir. Bu maqollar o'zining tarbiyaviy ta'sirchanligi, ohangdorligi, sodda va ixchamligi bilan bolalarni o'ziga jalb etadi. Bolalar nafaqat maqollardan kerakli xulosani chiqarib oladilar, balki, ularni darrov yodlab ham oladilar. O'zbek xalqi orasida farzand va farzandsizlik haqida quyidagi maqollar mavjud. Jumladan,

“Bol – shirin, boldan- bola shirin”,

“Bola beshikdan yiqilguncha, podsho taxtdan yiqilsin”,

“Bola bo'lsa sho'x bo'lsin, sho'x bo'lmasa yo'q bo'lsin”,

“Bola ko'ngli - podsho”,

“Bolali xotin - gul xotin, bolasiz xotin- tul xotin ”,

“Yolg'iz bola yovdan yomon”,

“Bolang yomon bo'lsa ham, omon bo'lsin”,

“Yomon o'g'il - mol o'rtoq, Yaxshi o'g'il-jonga”,

“Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada”,

“Odam mevasi-farzand”,

”Otangga qilganingni bolangdan ko'rasan”,

“Onagni quyosh bilsang, otangi oy bil” kabilar [89;272-bet].

Farzandning odobi, axloqi haqidagi maqollarda esa, bolaning odob-axloqi, kattalarni hurmat qilishi, odobli farzandni tarbiyalashda ota-onaning o'rni kabi qadriyatlarimiz aks etgan. Jumladan,

Kattaning hurmati - qarz,

Kichikka salom – farz.

Odobsiz betga chopar.

Ota bo'lish oson, odob berish qeyin.

Yaxshi bola nom ketirar,

Yomon bola g'am.

Yaxshi xulq kishining husni.

Qovun qovundan rang olar.

Qo'yni – serka,

O'yinnii erka boshlar, [89; 160-bet] kabi o'zbek xalq maqollari mavjud.

Yuqoridagi maqollarning yoshlarimizni, qolaversa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham barkamol insonlar bo'lib etishishida xizmati kattadir. Ular bolalarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilish bilan birga, ularning dunyoqarashini o'stiradi, fikrlash qobiliyatining takomillashuviga yordam beradi, lug'at boyligida yangi so'zlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Bola tarbiyasida o'zbek xalq ertaklarining o'rni va roli ham nihoyatda kattadir. Bolalar birinchi bo'lib tanishadigan milliy qadriyatlarimizdan biri - bu ertaklardir. Ertaklar bola hayotiga ona allasidan keyin, uning nutq, eslash qobiliyati va

fikrlashi bilan birga kirib keladi. Hech bir bola yo'qki, buvisi yoki onasidan uyqu oldidan ertak tinglamagan bo'lsa.

Mashhur allomalardan biri Forobiy [27] ertaklar orqali bolalar ilk bor vatan, do'stlik, saxiylik, adolat, mehnatsevarlik haqida tushunchaga ega bo'ladilar va vatanining chinakam fidoiysiga aylanadilar, degan fikrni ilgari suradi: Bolalikdan vatan, fuqaro, do'stlik, mehnatsevarlik tuyg'usi qon-qoniga ilk bor ertaklar orqali singgan kishilar, keyinchalik voyaga etgach, haqiqatdan ham ona yurtining chinakam fidoiy fuqarosi, do'stlik- birodarlikning qadriga etuvchi, mehnat mo'jizalarini yaratuvchi, xulq-atvorda yuksaklikka ko'tarilgan, qudratli va bag'ri keng xalqqa aylanadi-degan edilar.

Ertak – xalq og'zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri. Ertaklarda xalqning maishiy turmushi va qahramonliklari, insonparvarlik va vatanpar-varlik, sevgi va vafodorlik haqidagi orzulari xayoliy hamda hayotiy uydirmalar asosida hikoya qilinadi.

Ertaklar g'oyaviy asosiga ko'ra xalqning yorqin kelajagi uchun olib borgan kurashlari, intilish va orzularini aks ettiradi. Ertak janriga xos muhim belgilar, asosan, sujetlilik va sujet voqealarini og'zaki hikoya qilib berish, real hayotiy voqealarni uydirmalar qobig'ida tasvirlash, estetik vazifaning yetakchilik qilishi hamda tarbiyaviy o'git berishidir. Demak, hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy hamda hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi. O'zbek xalq ertaklari mavzu qamrovi, voqelikni aks etirish tarzi, ishtirok etuvchilarning tarkibiga ko'ra hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarga bo'linadi.

Ertaklarda mo'jiza yoki sarguzasht ma'lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog'lab, haqiqat, ozodlik, to'g'rilik, odamiylik, olijanoblik g'oyalarini targ'ib etadi. Shuning uchun ular bolani o'ziga ko'proq jalb etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan: “Chol bilan kampir”, “Bulbuligo'yo”, “Ur to'qmoq”, “Uch og'a-ini botirlar”, “Bo'ri bilan qo'zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No'xatvoy”, “Quloqvoy”, “Xandalak polvon”,

“Yapaloqpolvon” ...) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, masxara qiluvchi etnopedagogika turidir.

O'zbek ertaklarining ham asosiy yo'nalishini vatanga e'tiqod, haqiqat, jasurlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, saxiylik, hurmat-e'tibor, or-nomus, sadoqat va vafo kabi axloqiy qadriyatlar tashkil qiladi. Ertaklarning asosida xalqning orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'ylari, tashvishlari, qayg'u-alamlari, dardu hasratlari hamda ta'lim-tarbiya, barkamol inson haqidagi g'oyalari yotadi. Ertaklar majoziy, fantastik uydirma, hayotiy uydirmalar asosida tinglovchiga etkaziladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari majoziy ertaklarni xo'sh ko'rib tinglaydilar. Ularda voqea-hodisalar hayvonlar ishtirokida ochib beriladi.

BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR

1. O‘rganilgan ilmiy, pedagogik va badiiy manbalar shundan dalolat beradiki, barkamol avlodni shakllantirishda xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, uni shakllantirish tizimini ishlab chiqish Respublika ta’lim tizimi oldida turgan asosiy masallardan biri ekanligi tadqiqotda o‘z isbotini topdi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan, maqol va ertaklarning ahamiyati katta ekanligi olib borilgan nazariy tahlil jarayonida kuzatildi.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviyatini shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun uning manba va vositalarini belgilash zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

4. Xalq pedagogikasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishning o‘ziga xos tizimini vujudga keltirish zarurligi kuzatilmoqda.

II BOB. Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari

2.1. Boshlang‘ich sinflarda xalq pedagogikasidagi g‘oyalaridan foydalanishning mavjud ahvoli

Biz barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g‘oyalardan foydalanishning foylanishning mavjud holatini o‘rganish maqsadida boshlang‘ich sinf “Odobnoma” [29, 31, 32] darsliklarini tahlil qilib chiqdik.

Tanlagan mavzuning mavjud ahvolini bilish maqsadida dastlab boshlang‘ich sinflar Odobnoma darsliklarini tahlil qilib chiqdik. Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq pedagogikasi asosida barkamollik sifatlarini shakllantirishda “Odobnoma” darsliklari alohida ahamiyatga ega. Ushbu darslik yordamida o‘quvchilar o‘zbek halqining milliy xususiyatlari, o‘lmas qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi, ona tili, ajdodlar o‘giti, vatanimiz tabiati, unda yashovchi insonlar mehnati, turmush tarzi haqida bosqichma-bosqich ma’lumotga ega bo‘lib boradilar.

Odobnoma o‘quv predmetining maqsad va vazifalari yosh avlod qalbiga odob-axloq meyorlarini singdirish bilan birga milliy qadriyatlarimizni o‘rgatish asosida ularda milliylikni shakllantirish, vatanni qadrlay olish, kattalarni hurmat qilishni o‘rgatishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflar Odobnoma dasturi oddiydan murakkabga tomon borish tamoyili asosida tuzilgan, bir mavzu ikkinchisini to‘ldiradi. Oddiy salomlashish odobidan boshlanuvchi dars o‘quvchining odob-axloq haqidagi bilimlarini chuqurlashtira borib, barkamol inson sifatida shakllanishida ko‘maklashadi. Darslikdagi har bir mavzu bolalarning kundalik hayoti, turmush tarzi bilan uzviy bog‘langan. Har bir bo‘lim va mavzular ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarga bo‘ysundirilgan, o‘qituvchi mavzularni o‘zi yashaydigan mahalliy sharoit xususiyatlari bilan bog‘lab o‘tishi mumkin. Tarixiy, madaniy obidalar, rasm-rusumlar dars yo‘nalishini tashkil qiladi. Xususan, 2-sinf «Odobnoma» [29] darsligida o‘zbekona urf-odatlariga 2 soat, milliy bayramlarga 3 soat, milliy xalq

o‘yinlari va aytishuvlariga 3 soat, hikmatlar bo‘stonida, odoblilik kabi mavzularga o‘rin keng o‘rin ajratilganini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy bayramlar xaqida ma’lumot, ya’ni «Navro‘z» bayramiga 1 soat, «Mehrjon» bayramiga 1 soat, «Sumbula» bayramiga 1 soat ajratilgan.

Shuningdek, M.Xoliqova, Sh.Ergashevalar [31] tomonidan 2012 yilda nashr ettirilgan 3-sinf Odoynoma darsligini tahlil qilganimizda ham yuqoridagi fikrlarni uchratish muki. Darslikda mavzular yanada qiziqarli va kengroq tus oladi. Darslik ko‘pgina bo‘limlardan iborat bo‘lib, unda o‘quvchilarni tarbiyalashda milliylikdan foydalanishga alohida e’tibor berilgan. «Vatan muqaddas» bo‘limida O‘zbekistonning mustaqil davlat ekanligi, davlat madhhiyasi, Konstitutsiyada bolalar huquqi, O‘zbekiston pasporti, Vatanning ona kabi muqaddasligi, Vatan tuyg‘usi, milliy g‘urur va iftixor bilan yashagan bobolar mavzularini yoritish maqsad kilib olingan.

Darslikda yana o‘quvchilarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizdan otalar so‘zi, hadis, donolar bisoti, o‘git, maqol, ertak, rivoyat, xalq o‘yinlari, tez aytish kabilardan keng va o‘rinli foydlanilgan. Ayniqsa, darslikning “Inson go‘zalligi odoob-axloq bilan” nomli bo‘limida “Keksalarni ardoqlaylik”, “Keksalarning duosi”, “Hadis haqida tushuncha”, “Muqaddas kitoblarda bolalar odobi haqida”, “Donolar odoob-axloq, do‘stlik haqida”, “Saxiylik va baxillik haqida o‘gitlar” kabi mavzular berilgan.

Misol tariqasida keltiridigan bo‘lsak, “Hadis haqida tushuncha”, “Muqaddas kitoblarda bolalar odobi haqida” dagi mavzularda o‘quvchilar hadislar nima ekanligi, hadislardan namunalar keltirilgan. 32-betda “Hadislar islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Hadislarda Muhammad payg‘ambarning turli munosabat bilan aytgan so‘zlari, hayoti, faoliyati va ko‘rsatmalari o‘z aksini torgan” degan fikrni uchratamiz. Bu bilan kitobda o‘quvchilarga hadis nima ekanligi tushuntirib ketilgan. 33-betda quyidagi hadislar keltirilgan: “Odamlar orasida chaqimchilik va bo‘hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar”, “Kishidagi eng yomon illat-o‘ta baxillik va qo‘rqoqlikdir”, “Garchi xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har

mo‘minga farzdir”, “Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo‘q” va boshqa hadislar keltirilgan.

Yoki kitobning 35, 36, 37 - betlarida ko‘plab Sharq rivoyatlaridan keltirilgan. Jumladan, “Odobni odobsizdan o‘rgandim” rivoyati quyidagicha hikoya qilinadi:

Luqmoni hakimdan so‘radilar:

- Odobni kimdan o‘rganding?
- Odobsizdan,-javob qildi u.
- Iye, qanaqasiga?-hayron bo‘lishdi.
- Odobsizning qaysi ishi ko‘zimga yomon ko‘rinsa, o‘sha ishlarni men qilmadim.

37-betda esa allomalarimizning kim bilan do‘st bo‘lish mumkinligi haqidagi fikrlari keltirilgan.

Donolarning aytishicha, uch guruh kishilar bilan do‘st bo‘lish mumkin:

1. Ilmli kishilar bilan. Chunki ular o‘z hayotlarini ilmu odob bilan o‘tkazadilar.
2. Oliyjanob kishilar bilan. Ular do‘stlarining aybini yashiradilar va hech qachon oshkor qilmaydilar. Yolg‘iz qolganda do‘stning aybini o‘ziga aytib, tuzatishga yordam beradilar.
3. Beg‘araz va be’tama kishilar bilan. Ularning do‘stlari haqiqiy bo‘ladi. Do‘stlikdan foyda ko‘rishni o‘ylamaydilar.

Allomalarning do‘stlik haqidagi fikrlari

Chin do‘st uldirki, do‘stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham o‘zrini qabul qiladi. (Amir Temur)

Yangi do‘st topsang, eski do‘stlaringni unutma va ulardan yuz o‘girma. Shunday qilginki, do‘stlaring ko‘p bo‘lsin. Yaxshi do‘stlar kishining boyligidir. (Kaykovus)

Nodon do‘stni do‘st soniga kiritma. Chunki u nodonligi tufayli senga zarar yetkazadi. (Alisher Navoiy)

Ushbu donolarning do‘st tanlash haqidagi fikrlari juda ham ahamiyatli hisoblanib, o‘quvchilar ularga amal qilsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

3-sinf Odobnoma [32] darsligi tahlili natijasida shuni alohida ta’kidlash joizki, darslik tom ma’noda milliy tarbiyaga bag‘ishlangan. Darslik shubhasiz ota-

bobolarimizning turmushda orttirgan tajribalari, qarashlari, orzu umidlari asosida yaratilgan desak xato bo'lmaydi.

M.Xoliqova, Sh.Ergashevalar tomonidan 2011yilda nashr qilingan 4-sinf «Odobnoma» [32] darsligini tahlil qilganimizda, mavzularning yanada takomillashib, mukammallashib borganini ko'rishimiz mumkin. Shubhasiz bu darslikda ham vatanparvarlik, millatlararo do'stlik, ajdodlarimiz ardoqlagan qadriyatlar, o'zbekona urf-odatlar, an'analar, davlat tili, tarixiy obidalar, xalq hunarmandchiligi, vatanimiz posbonlari, sog'lom turmush tarzi, kim bo'lsam ekan, xalqimizning ezgu fazilatlari, axloq- odob qoidalari kabi mavzularga oid qiziqarli matn, she'r, hikoya va rivoyatlar berilgan.

Xususan, 87-betda "Axloq-odob qoidalari" ga bag'ishlangan darsda o'zbek millatining axloq-odob qoidalari to'g'risida fikr bildirilgan. 89-betda "Axloq" nomli matn berilgan bo'lib, u quyidagicha hikoya qilinadi.

- Suv, Olov va Axloq –uchovi do'st tutinishibdi. Bir kuni ular sayrga chiqishibdi. Bir-birilaridan xavotir olib, Suvdan so'rashibdi:
- Agar yo'qolib qolsang, seni qayrdan topamiz?
- Qayerda shirillash ovozini eshitsangiz, men o'sha yerda bo'laman,-debdi Suv.

So'ngra Olovdan so'rashibdi:

- Seni yo'qotib qo'ysak qayerdan topamiz?
 - Qayerda tutun ko'rsangiz, men o'sha joyda bo'laman,-debdi Olov.
- Navbat Axloqqa kelganda u shunday javob beribdi.
- Meni yo'qotsangiz, izlab yo'rmang. Hech qayerdan topa olmaysiz.

"Sirli, ibratli va hayotiy hikoyalar" kitobidan.

Biz yuqorida "Odobnoma" darsliklarida berilgan mavzular, milliy tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladigan manbalar bilan tanishib chiqdik.

Navbatdagi vazifamiz ushbu darsliklarda milliy qadriyatlar namunalari: ertak va maqollarning farzand tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil etishdir.

“O'qish” darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, farzand tarbiyasiga oid maqollarga qanday o'rin berilganligiga asosiy e'tiborni qaratdik. Har bir sinf uchun belgilangan o'qish darsligida xalq og'zaki ijodi namunalariga fajratilgan alohida bo'lim mavjud bo'lib, mavzuga doir matn va she'rlar bilan bir qatorda maqollar ham keltirilgan. Masalan, 2-sinf o'qish darsligida [89] **«Otalar so'zi aqlning ko'zi» bo'limida quyidagi maqollar keltirilgan: “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog' qolar”, “Yaxshi bilan yursang etarsan murodga, Yomon bilan yursang, qolarsan uyatga”, “To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'larsan, Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'larsan”, “Yaxshiga yondosh, yomondan qoch”** kabi farzand tarbiyasiga oid maqollar keltirilgan. Bu maqollarning darsliklarga kiritilishidan ko'zlangan maqsad ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Eng asosiysi shu maqollarda ilgari surilgan farzand tarbiyasiga oid g'oyalarga bolalarning amal qilishi ko'zda tutiladi. Ko'pincha darslikda berilgan maqollarni yodlash uchun mavzuning yakunida beriladi, bunga sabab berilgan maqollar mavzuni to'ldirish uchun xizmat qilishi bilan birga, mavzuda bayon etilgan fikrlarni xulosalash uchun ham ahamiyatlidir.

Boshlang'ich sinf “Odobnoma” darsligini tahlil qilganimizda ham ko'plab o'zbek xalq maqollaridan keltirilganligining guvohi bo'lamiz. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, 2-sinf “Odobnoma” [30; 76-bet] darsligida xalq pedagogikasi namunalariga keng o'rin berilgan. Shu darslikning “So'zlashish odobi” bo'limida farzand tarbiyasiga doir quyidagi o'zbek halq maqollaridan keltirilgan: “Yaxshi so'zdan olam yashnaydi, yomon so'zdan odam qaqshaydi”, “Yaxshi so'z qaymoqqa o'xshar, yomon so'z to'qmoqqa o'xshar”, “Ota-ona - aziz va mu'tabar” bo'limida esa, ota-onani hurmatlash to'g'risidagi quyidagi maqollar keltirilgan “Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'l”, “Kimki, ota-onasini ayasa, qadri bo'lar xalq orasida”, “Yaxshi qiz ona – baxti, Yaxshi o'g'il – ota taxti”, “ota hunari bolaga meros” kabi maqollar berilganki, ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ota-ona va kattalarga hurmat, mehnatga ijobiy munosabat va vatanga sadoqat, odob-axloq normalariga rioya qilish kabi hislatlar shakllanadi.

Shu bilan birga o'quvchilar farzandning ota-ona va vatan oldidagi burchli ekanliklarini anglab oladilar.

Bugungi kunda pedagogika fanining vazifasi ham ushbu meroslarni chuqur o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashdir. Biz xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish maqollar va ertaklarni tahlil qilar ekanmiz, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalashiga ko'rsatadigan ta'siri benihoya katta ekanini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirish darajalarini aniqlash maqsadida tajriba –sinov ishlarini olib bordik. Tajriba ishlari Qarshi shahridagi 21–umumiy o'rta ta'lim maktabida olib borildi. Bunda nazorat va tajriba sinflari tanlab, «O'qish» va «Odobnoma» darslarini kuzatdik. Tajriba davomida jami 18 soat dars kuzatdik.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar uyushtirib, og'zaki so'rovlar asosida o'qituvchi va o'quvchilarning biz tanlagan mavzuga nisbatan qiziqish va bilimlarini aniqlashga harakat qildik.

Pedagogik kuzatishlar davomida jami 12 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari, 59 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Tadqiqotimiz avvalida o'qituvchilar tomonidan xalq og'zaki ijodidan namunalardan foydalanishga yo'naltirilgan ishlarning ahvoli, o'qituvchilarning farzand tarbiyasiga oid maqol va ertaklar haqidagi bilim va tushunchalarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun ularga anketa savollari bilan murojaat qildik. Anketa-so'rovlari natijasi quyidagicha bo'ldi:

2.1.1.-jadval

O'qituvchilarning xalq og'zaki ijodi haqidagi bilimlari darajasi

T/p	Berilgan savol	Xalq yaratgan va shu paytgacha og'izdan og'izga o'tib kelayotgan xalq donoligini	Milliy madaniyatni	Xalqning turmush tarzini
1	Xalq og'zaki ijodi deganda nimani tushunasiz?	11	-	1

2.1.2.- jadval

O'qituvchilarning xalq pedagogikasini bilish darajalari

T/p	Berilgan savol	Kishilik jamiyatining o'rta asrlarida	Xalq paydo bo'lganidan buyon	Mustaqillik yillaridan keyin
1	Xalq pedagogikasi qachon paydo bo'lgan?	3	7	2

2.1.3. - jadval

O'qituvchilarning xalq pedagogikasi va etnopedagogika tushunchalarini farqlay olish darajasi

T/p	Berilgan savol	Bir xil ma'no anglatadi	Etnopedagogika tarixiy degan ma'noni bildiradi	Etnopedagogika milliy degan ma'noni anglatadi
1	Xalq pedagogikasi va etnopedagogika tushunchalari o'rtasiga farq bormi?	2	5	5

2.1.4. - jadval

O'qituvchilarning xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishganlik darajasi

T/p	Berilgan savol	Matbuotda chop etilayotgan materiallar	O'z kasbiga oid ilmiy kitoblar	Badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodiga doir kitoblar
1	Mustaqillikdan keyingi yillarda chop ettirilgan xalq og'zaki ijodiga oid manbalar bilan tanishganmisiz	3	6	3

2.1.5. - jadval

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining maqollar haqidagi bilimlari darajasi

T/r	Berilgan savol	Xalq donoligini	Kichik she'riy matnni	Xalqning turmush tajribalari asosida yaratgan qarashlarini
1	Maqol deganda nimani tushunasiz?	5	4	3

2.1. 6.-jadval

O'qituvchilarning o'zbek xalq ertaklarining turlarini bilish darajalari

T/r	Berilgan savol	Fantastik va maishiy ertaklar	Sehrli ertaklar va tarixiy ertaklar	Hayvonlar haqidagi, sehrli, fantastik, tarixiy ertaklar
	O'zbek xalq ertaklarining qanday turlarini bilasiz ?	2	3	7

O'qituvchilar bilan olib borilgan tadqiqot tahlilidan shu narsa ayon bo'ldiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari xalq og'zaki ijodining nima ekanligini yaxshi bilishadi va undagi g'oyalarlarni o'quvchi tarbiyasidagi o'rnini yuqori baholaydilar. Ammo o'qituvchilarimiz xalq pedagogikasining qachon paydo bo'lganligini, etnopedagogika tushunchasining xalq pedagogikasi tushunchasi bilan bir xil ma'no anglatishini bilmadilar. Shuningdek, o'qituvchilar maqol va ertaklarning mohiyati haqida juda yuzaki ma'lumotga egalar. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ba'zi savollarga to'liq javob bera olmaganliklarining asosiy sababi bu sohada yangi adabiyotlar bilan tanish emasliklari, o'z malakalarini muntazam oshirmayotganliklari bilan izohlanadi. Afsuski, mazkur kamchiliklar o'quvchilarda xalq pedagogikasini o'rganishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Bizning navbatdagi vazifamiz o'quvchilarning biz tanlagan mavzu nisbatan qiziqishlari, bilim darajasini aniqlashdan iborat. Bunda biz o'quvchilarga og'zaki savollar bilan murojaat qildik. (1-ilova)

Og'zaki savol-javoblar natijalariga ko'ra o'quvchilarning javoblarini 3 daraja bo'yicha baholadik:

Yuqori daraja. Bu darajaga savollarga aniq va to'liq javob bergan o'quvchilar kiritildi. Ular o'z fikrlarini himoya qila oldilar. Shu bilan bir qatorda bu o'quvchilar muloqot jarayonida o'zlarini erkin, mustaqil tutdilar.

O'rta daraja. Bu darajaga savollarga to'liq javob bera olmagan o'quvchilar kiritildi. Ularning javoblaridan o'z javoblariga bo'lgan ishonchning yo'qligi sezilib turdi.

Quyi daraja. Bu darajaga javoblarda o'ziga ishonchsiz, javoblarda chalkashliklarga yo'l qo'yayotgan o'quvchilar kiritildi. Afsuski, bunday o'quvchilar soni ko'pchilikni tashkil etdi.

O'quvchilarining javoblari tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori darajada javob bergan o'quvchilar soni 23,1 foizni tashkil etadi. Bu guruh o'quvchilar biz bergan savollarga aniq va to'liq javob qaytara oldilar. Qo'shimcha savollar berilganda o'z fikrlarini himoya qila oldilar. Savollarga o'rta darajada javob bergan o'quvchilar esa 41,7 foizni tashkil etdi. Savollarga quyi darajada javob bergan o'quvchilar 35,2 foizni tashkil etdi. Ularning javoblarida o'zida ishonchning to'la shakllanmaganligini kuzatdik. Ular yurtimiz maqol va ertaklarni aytishda chalkashliklarga yo'l qo'yidilar. Afsuski, bunday o'quvchilar soni ko'pchilikni tashkil etdi.

O'quvchilar bilan uyushtirgan og'zaki savol-javob natijalaridan shunga amin bo'ldikki, bu yoshdagi o'quvchilar ertak tinglashni juda xo'sh ko'radilar. Afsuski, ota-onalar, o'qituvchilar bu borada sustkashlikka yo'l qo'ymoqdalar. Bolalarning ertak eshitishga bo'lgan qiziqishlari ota-ona va o'qituvchi tomonidan qondirilmayapti.

Bu esa bolalarda xlaq og'zaki manbalarini o'rganishga qiziqish, asrab-avaylash ishlarining oila va maktablarda yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi.

2. 2. O'tmishda bola tarbiyasida qo'llanilgan usullar

O'zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida, oilaviy turmush tarzida bola tarbiyasida qo'llangan usul va tadbirlarda nomoyondir.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vosita tadbir shakllari, urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar-hayotiy tajribalar o'zbek halq pedagogikasida mujassamdir.

Xali maktab bo'lmagan pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrdayoq qabila a'zolarining bolalar tarbiyasi sohasida ortirgan, tajribalari hayotiy mevasi sifatida bizning davrimizga qadar etib kelgan va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi.

O'tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada nasixat, tushuntirish, maqtash, rag'batlantirish, na'muna ko'rsatish, tanbeh berish, taqiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Jamoa a'zolari bu usullarni qo'llashda, ahloq qoidalariga suyangani holda, qilgan ishi, xatti-xarakatining to'g'ri yoki noto'g'riligi xaqida bolada ishonch hosil qilishga harakat qilganlar, unga ahloqlilik va ahloqsizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma'nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan. Tushuntirishda bolalarning yoshi hisobga olingan. Ota-onalar bolalarga axloq qoidalarini tushuntirishda, «Kamtarlik ham bir hislat», «Odob-kishining zebi ziynati», «Eshik ochik bo'lsa ham so'rab kir», maqollari, «Yotish qoidasi» hikoyasi, «Xasis va afandi», «Hovliqma», «Maqtanchiq» kabi latifalaridan foydalanishgan. Chunki, maqol va latifalarning obrazlilik bolalar ongiga, hissiyotiga kuchli ta'sir etgan. Xalq pedagogikasida bolaga fikrni qisqa, aniq bayon etish qobiliyatini o'stirishga e'tibor berilgan. Yaxshi so'z, yaxshilik qilish, yomonlik va ko'p so'zlashning zarari haqida maqollar ijod qilingan.

Oz so'z-soz so'z,

Tilga ixtiyorsiz-

Elga e'tiborsiz.

Yaxshidan bog' qolar,

Yomondan dog' g'olar.

Yaxshi odam oshini er,

Yaxshilik erda qolmas.
va boshqalar.

Yomon odam boshini er.

Ahloq qoidalarini bir guruh bolalarga va bir bolaga alohida tushuntirilgan. Ayrim vaqtlarda kattalar birlashib bolasi axloqsizlik qilgan oilada suhbat o'tkazishgan, bolaning xatti-harakatidagi noo'rin jihatlarni ko'rsatib, ota-onalarga tegishli maslahatlar berganlar. O'tmishda axloq tarbiyasida nasihat qilish, maslahat berish usuli ham keng qo'llangan. Ota-onalar o'z bolalariga kattalar o'rtasida ular bilan so'zlashganda mehmonga borilganda, o'zini qanday tutish haqida nasihat qilganlar, axloq qoidalariga rioya etgan bolalar va kattalar nomini o'rnak qilib tilga olganlar. Shuningdek, ular o'z uylarida mehmonni qabul qilish, tartibini buzgan-“assalomu alaykum” deb kutib olmagan, ovqat va choy keltirishda noo'rin harakat qilgan, mehmon qo'lga suv qo'yib, sochiq tutmagan, ketishda xayrlashishni unutgan, bolalarga mehmon ketgandan keyin nasixat qilib, yo'l qo'ygan kamchiliklarini ikkinchi marta takrorlamaslikni uqtirganlar.

Ota-onalar o'z farzandlariga bo'lgan muhabbat va xayrihohliklarini amaliy ravishda ko'rsatishga harakat qilganlar. Ularning fikricha, bola bir yaramas ishni bilmasdan qilgan bo'lsa, kechirish kerak, bilib qilgan bo'lsa, nasihat qilib, qilgan ishining yomonligini tushuntirish, agar u yana yomon ish qilsa, jazo berish kerak. Ammo uni yaramas so'zlar bilan so'kib, haqorat qilmaslik lozim, bu uni yomon so'zlarga o'rgatadi.

Yaramas ish qilgan bolaning aybini o'zidan eshitmoqchi bo'lib: “To'g'risini ayt, ont ich, aytmasang kaltaklayman”,-deb qo'rqitmaslik kerak. Agar shunday qilinsa, bola qo'rqanidan yolg'on ont ichshga aybni yashirishga yolnonchilikka odatlanib qoladi. Shu sababli, o'tmishda ota bobolar, onalar ayrim hollarda ertaklardan ifodalangan voqea, qahramonlar misolida bolalarga nasihat qilganlar: - Bahorning go'zal kuni edi, havoni bulut o'rab oldi, yomg'ir yog'di. Keyin yana quyosh chiqdi, hamma yoq go'zallashdi. Bir kichik sichqon yomgirdan keyin o'ynamoq uchun inidan chiqmoqchi bo'ldi, onasi unga:

-Bolam, hozir inimizdan chiqma, mushuk bizning chiqishimizni poylab turibdi, agar chiqsak darrov tutib eb qo'yadi,-dedi.

Bolasi onasining so'zini tinglamadi, inidan chiqqan zamoniyoq, poylab turgan mushuk uni eb qo'yadi. Mana,

aziz bolalarim bu hikoyamdan ota-onaga itoat qilmaslikning zarariga bildingiz. Endi mening ikki og'iz nasihatim esingizdan chiqmasin:

1. Har ona o'z bolasini sevadi, doimo uning yaxshi bola bo'lishini istaydi, unga har vaqt go'zal nasihat qiladi.

2. Bolalar ham ota-onalarining so'zlarini tinglashlari, nasihatlarini quloqlariga olishlari kerak.

Bobolarimiz bola tarbiyasida ota-onalar oldiga shunday talablar ko'yganlar:

1.Ota-ona bolaga ustozdir. Ular:

-bolani yaramas ishlardan saqlab yaxshi ishlarga qiziqtirishlari, uning yonida yomon qiliqlardan saklanishlari, odob, tarbiyaga, zid so'zlarni gapirmasliklari lozim,

-bolani hech kimga yomonlik qilmaslikka, qo'ldan kelgancha yaxshilik qilishga ko'niktirish, uning ko'ngliga shavqat, marhamat tuyg'ularini solishga g'ayrat qilishi kerak,

-bolani yaxshi, to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'zlari ham shu yo'ldan ketishlari lozim. Ota-onaning odobli, tarbiyayali ekanligi har bir xatti-harakatidan ko'rinib tursin, bolalarga namuna bo'lsin,

-yaxshi deb bilgan ishni ishlab ko'rsatish va u ishning yaxshiligiga bolani ishontirish kerak,

-bola tarbiya qiladigan ota-onaning o'zi to'g'ri so'zli bo'lishi, muhabbat asarini ko'rsatib, har bir vaqt unga xayrihoh bo'lganini bildirishi lozim.

-yaxshi tarbiyalanib turgan bolani o'z darajasiga loyiq mukofotlash va uning aksincha, bo'lganlarga isloh qilarlik ravishda jazolash tarbiyaninig negizidir. Mukofot uchun shirin so'zlar bilan ularni maqtash, sevgan narsalariga erishtirish birga o'tirib suxbatlashish kerak. Bola ota-onasininig yuzida norozilik alomatlarini

ko'rib uning jazo ekanini bilsin. Mukofot yoki jazo bolalarning saviyasi darajasida bo'lsin.

-bola bolaligini qilmasdan qo'ymaydi, katta-kichik bo'lmagur ishlarni qilib qo'yadi. Uning bu kamchiliklarini bira-to'la bitirish mumkin emas, vaqti-vaqti bilan sekin asta tuzatish har bir ishda sabrli bo'lish lozim. Bolalar yonida har vaqt odillik bilan ustozlarcha ish olib borish, tarbiyaning eng muhim negizidir.

Bobolarimiz bola xalqi –ulug xalqlarning ulugi bo'lib, bunga ota—ona va murabbiylar mas'uldir, deydilar: Shuning uchun bu xaqlarini bilish va kerakli paytda ado etish, ota-ona va murabbiylar uchun lozimdir. Bola yoshlik vaqtida har xil tarbiyaga qobil bo'lgani uchun bu vaqt ulug' g'animatdir. Shunga ko'ra, uni yoshlik-bolalik vaqtdan boshlab, tarbiya qilish kerakdir. Agar bolaga go'zal tarbiya berilsa, u baxtli, saodatli bo'ladi, har bir yaxshi ishlari bilan ota-ona va murabbiylarini shodlantiradi.

Bolalarni go'zal tarbiyali etish uchun, ota-onaning o'zlari axloqli, tarbiyali bo'lishlari shartdir. Bolalarga bergan tarbiyalariga o'zlari amal qilmasalar, xulq –atvorlarini tuzatmasalar, bolalariga umirlari bo'yicha tarbiya bermasalar foydasi bo'lmaydi. Ota-ona bolalarini to'g'ri so'zlash, to'g'ri ishlashga o'rgatib, tarbiya etsa, bolalari to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlashga odatlanadilar. Yomon tarbiya bolalarni baxtsiz qiladi.

Bolalarning buziq so'zlarni eshitib kulib turishi, yaramas ishlarini olqishlash, ularni orsizlik axloqsizlikka odatlantirishdir. Nazorat ostida bolalarga go'zal o'yinlar o'rgatish ularning zehnlarni ochadi. Bolalarni foydali o'yindan ajratmaslik kerak. Bolalarni ularning tabiatlariga mos bo'lgan ko'ngillari istagan o'yinlardan ayirish istedad –qobiliyatlarning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Zero, o'yinlarni man etish natijasida bolalar asabiy, o'zlarini tuta olmaydigan va muxokamasiz bo'lib etishadilar. Bir donishmand: “Ota-ona va murabbiylarning bolalarini zararsiz o'yinlardan ham mahrum etishlari ularning marhamatsiz, ittifoksiz va kishilarga yoqimsiz bo'lishlariga sababchi bo'ladi” - deb aytadi. O'tmishda ishonch hosil qilish usuli noo'rin harakat qilgan, qilgan ishida adolatli bo'lmagan, bolalarga nisbatan qo'llangan. Ishontarish usulida boladan yo'l qo'ygan xatosiga iqrar bo'lish

talab etilgan, talab “nima uchun qilding?”, “nega bu ishni qilding?” “Kim senga bu ishni qilgin dedi?” savollariga javob olish tarzida bo'lgan.

Bola tarbiyasida o'gil bolalarga qaraganda qiz bollarga ko'proq e'tibor berish lozim. Chunki, qiz bola voyaga etgach boshqa xonadonga kelin bo'lib tushadi. Agar u uy ishlarini bilmasa oilaga rahbarlik qila olmaydi. Yo'l yo'riq ko'rsatish, tushuntirish usuli kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu yoshdagi bola ota-onadan kattalardan axloq qoidalari haqida birinchi bor saboq oladi, qoidalarni doimo xotirada saqlab tura olmaydi, o'z hayotida unga izchillikda amal qilmaydi. Kichik yoshdagi bolalarda bu xususiyatning bo'lishi tabiiy holdir. Shu sababli ham o'tmishda xalqi qo'llagan tushuntirish usuli an'ana sifatida hozirgi vaqtda ham ijodiy tarzda davom etilmoqda.

1. O'tmishda hozirgi davrda ham axloq tarbiyasi ota-onaning, katta yoshdagilarning o'z yaxshi fazilatlarini, xulq atvorlari bilan bolalarga yoshlarga namuna bo'lishlari shart. Shu sababli ham xalq ijodining maqol va iboralarida namuna bo'lishning ahamiyati keng ifodalangan.
2. Ota-ona va kattalarga izzat hurmat ko'rsatish, olsishlash taqsimiga sozovor ishdir. Ota-onaning roziligini olishga diqqat va g'ayrat qilmok lozim. Yoshi anchagina soqol mo'yylablari chiqqan o'g'il ham otasi huzuriga chiqqanda qo'l qovishtirib salom berishi kundalik qarzdir.
3. Farzandlarning go'zal odobli tarbiyali bo'lishlari uchun eng avval otalarning o'zlari go'zal xislatga, yani yaxshi tarbiyaga odobga ega bo'lishlari shart. Bir olim fozilning: “Go'zal tarbiyali ota-onadan tarbiyali odobli farzand etishadi”- degan so'zi juda to'g'ri.

Bayt. Barcha erda istasang o'tsin so'zing,

 Tabiat birla, qurollangil o'zing.

4. Ona bo'lish –ulug bir ne'mat va nazrsiz bir sharafdir. Bola tarbiya etish usuli bilan oshno bo'lish, xotinlar uchun lozim bo'lgan ishlarni bilish go'zal va xunuk xulqlardan xabardor bo'lish, xotinlarning vazifasidir, yana bola tarbiyasi uchun

lozim bo'lgan sogliqni saqlash bilan tarbiya ilmidan olgan ma'lumotlarini ortirish uchun gayrat qilish lozimdir.

5. Bolani urib, qattik qo'llik bilan emas, balki muloyimlik bilan tarbiya etish kerak. Zarar bilan foydani xali ajratolmagan yosh o'smirni nazoratsiz qoldirish xatodir.
6. O'zbek xalqi axloqiy tarbiyada o'z bolasiga namunali va yaxshi xatti- xarakati bilan boshqalarga namuna bo'ladigan o'rtog'ini maqtash va ibrat ramzi bo'lgan kishilar hayotidan ayrim lavhalarni ogzaki ijod asarlaridagi ijobiy qahramonlarning axloqiy fazilatlarini hikoya qilib berish usulidan ham foydalanadi. "Hikoyat: Sulton isimli bola o'z o'rtog'i Yusufjonga: - Yusufjon, Ali akaning bogidagi yongoqlarni ko'rdingmi? Qanday yaxshi, shirin yongoqlar. Yur shu yongoqlarni cho'ntagimizni tuldirib olaylik, - dedi. Yusufjon unga: - Yo'q bo'lmaydi, - deb javob berdi.

-Nega sen yong'oqni yomon ko'rasanmi? Men bilan, sen yongoqni yaxshi ko'rasan, nima uchun bo'lmaydi deysan?

- U yong'oqlar Ali akaning yong'oqlari, egasidan so'ramasdan olish yaxshi emas, shuning uchun qabul etmayman.

-O'rtoq, yo'q dema, bizni hech kim ko'rmaydi. Men daraxtga chiqib yong'oq qoqaman, sen terib olasan, kel, yo'q dema.

- Yo'q dedim-ku, bo'lmaydi.

-Bugun senga nima bo'ldi. Faqat "yo'q bo'lmaydi" degan so'zni qaytarib turasan, buning sababini so'zla.

-Sababini so'zladim-ku, yong'oqlar bizniki emas, o'g'rilik qilmayman.

-O'grilik deysanmi? Qiziq bola ekansan. Hech kim ko'rmagandan keyin o'griligi nimasi?

- Hech kim ko'rmasa ko'rmasin, lekin vijdonimiz ko'rib turadi, u bizni yomon ishlardan qaytaradi, shuning uchun sening taklifingni qabul qilmayman". "Sevimli o'gillarim, - deydi ota - doimo yomon ishlardan saqlaning, birov sizni yomonlik qilishga taklif etsa, Yusufjondek "yo'q bo'lmaydi" deb javob bering". Bobolarimiz bolalar bilan suhbatlar o'tkazib, ularning har bir inson sharafi, obro'si

yaxshi xulqi bilan ortishining, yomon xulq bilan kamayishini bilib olishlariga alohida etibor berib, yaxshi va yomon xulqning ma'nosini tushuntirib, nasihat qilib deganlar: "Aziz bolalarim, bu so'zlar buyuq bir haqiqat, doimo yodimizda bo'lsin. Doimo yomon xulqlarimizni yo'kotishga, uning o'rniga yaxshi xulqqa ega bo'lishga g'ayrat qilaylik. Kelinig, hammamiz birgalikda yaxshi va yomon xulqlarning ba'zilarini bu suhbatimizda tekshirib o'taylik.

Yomon xulqlardan biri takabburlik va g'ururdir. Har kim o'zini sevadi va o'zining kamsitilishini istamaydi. Takabburlik, mag'rurlik, manmanlik esa boshqalarni mensimay o'zini hammadan yuqori qilib ko'rsatishdir. Magrur va takabbur odamlar tez orada hamma do'stlarini yo'qqa chiqaradilar. Olimlardan biri shunday degan:

-Magrur, manmanlikka mukkasidan ketgan odam tinchilik bilan ertalab nonushta qiladi, zo'rga- zo'rga tushki ovqatni eydi, xijolatlar ichida kechki ovqatni eyishga kirishadi. Buning ma'nosi shudir: Mag'rur va takabbur, odam oldin boy bo'lsa ham, keyinchalik juda muhtojlikka tushib qoladi. Chunki g'urur, takabburlik insonni doimo isrofga chaqiradi. Mag'rur odamlar o'zlarini hammadan yuqori ko'rsatish uchun ilm, mehnatdan qochadilar. Shu sababli, zarurat va muhtojlik bosh ko'rsatadi. Muhtojlik va zarurat bilan barobar uyalish va xijolat chekish keladi. Har narsa etarli bo'lib, rohatda yashagan birovning ko'nglini mag'rur va takabbur odam muhtojlikka tushgan vaqtida hech kimdan yordam va yaxshi muomula ko'rmaydi. Xatto bir vaqt undan ko'ngli qolgan odam tomonidan yaxshi muomila ko'rsa, juda ham xijolat chekadi. Yomon xulqlardan yana bittasi mahtonchoklikdir. Masalan: bir bola xech bir rasm tushurishni bilmasa ham: "Men falon rassom kabi rasm chizaman, men chizgan rasmni uncha muncha rassom chiza olmaydi"- deb o'zini maqtasa, u bolaga maqtonchoq bola deyiladi. So'zning xulosasini aytganda, bir odam o'zida bo'lmagan sifatlar bilan maqtansa, u odamni "maqtonchok" deb chaqiradilar. Odam o'z obrusini ma'nosiz so'zlar bilan ortira olmaydi. Maqtonchoqlar o'zlarini kulgiga qoldiradilar, xalq qoshida bebro' bo'ladilar, maqtochoqlik axmoqlikning dalilidir. Tavoze-o'zini kamtar tutishlikdir. Takabburlik, g'urur, maqtonchoqlik yomon xulq bo'lgani kabi, tovoze hammaga

maqbul bir xulq fazilatdir. Tovoze manmanlik va maqtonchoqlikning aksidir. Tavozeli odam o'zida bo'lgan avzallikni aslo tilga olmaydi, o'zini kamtar tutadi. Donishmandlardan biri tavoze haqida shu go'zal so'zni aytadi: -Afzallik, ortiqlikni yuqorilashtiradigan va uni yana ham porloq ko'rsatadigan tovozedir. Insonda biror afzallik bo'lsa, uni har kim ko'radi, Afzallik o'z- o'zini ko'rsatuvchi bir nur kabidir. Tavoze uning atrofidagi doglarni ketkazadigan tozalaydigan bir fazilatdir”.

Ota onalar o'z bolalari haqida boshqalardan salbiy fikr eshitmaslik, bolalarida go'zal axloqli odamlarga nisbatan havas, ularga o'xshashga intilish tuygusini tarbiyalash va o'stirishga, ularning odob- adab so'zlarining ma'nosini anglab olishlariga xarakat qilganlar. Ma'lumki, odob har bir axvol va odatda aql buyurgan ravishda harakat qilish, ya'ni yaramas ishdan, yomon so'zdan nafsini tiyish, o'zining ham boshqalarning ham izzatlarini saqlab, obro'sini to'kmaslikdir. Adab inson kamolotining birlamchi omillaridan sanaladi. Badanimizning quvvatlanishi uchun eyish, ichishga muhtoj bo'lganimiz kabi, insonning aqli ham odobga muhtojdir. Odobli bo'lmagan aql egasi qurol aslaxasiz baxodirga o'xshaydiki, u hech bir ish qila olmaydi, aksincha dushmanlarga mag'lub bo'ladi. Odob ziynati bilan ziynatlanmagan odam, dushmanlarini sevintiradi, do'stlarini esa qayg'ulantiradi. Ota -onalar suzining ma'nosini tushuntirishda bolalarini majlis odobi, til odobi, do'stlik odobi, kiyim kiyish odobi, choy ichish, ovkatlanish odobi, mulokot odobi xakida, ta'lim berganlar.

“Majlisda biror odam gapirayotgan vaqtda uning so'zini yaxshilab tinglang, nutqni buzmay, sababsiz kulmay. Majlisda aytish mumkin bo'lmagan so'zlarni so'zlamang, majlisda bo'lganlarning xurmatini bajo keltiring.

O'zingizdan katta yoshli odamlar o'zaro so'zlashib turgan bo'lsalar, ularning so'zlariga aralashmay, sizdan biror narsa so'ragan vaqlarida ochiq va muloyim tovush bilan javob bering, bir so'zni ko'p marta qaytarmang”.

Ota bobolarimiz “Og'zingdan chiqqan so'zni qulog'ing eshitsin”,- deb juda to'g'ri so'zlaganlar. Nima to'grisida so'zlashni istasang avval yaxshi tushunib, o'ylab, keyin so'zla. Til - qilichdan o'tkir, qilichdan egan yara tuzaladi, ammo til yarasi tuzalmaydi. Shuning uchun tilni yaramas so'zlarni so'zlashdan saqlash kerak.

Odamning shodlik va qayg'uli vaqtlarida tayanchi shubhasiz uning do'stlaridir. Shuning uchun yosh va bosh jihatdan o'zingizga mos keladigan kishilarni tanlab do'stlashing. Samimiy do'st bo'lingiz. Aziz bolalarim har bir bilgan ko'rgan va o'rgangan narsamizni boshqa kishiga so'zlashga haqli emasmiz, bir kishining aybini kamchiligini ko'rsak yoki eshitsak uni oshkor qilishga xaqqimiz yo'qdir. O'z ayb va kamchiligimizning oshkor bo'lib, odamlar ogzida so'zlanib yurishini albatta istamaymiz. Shunday ekan, o'zimiz istamagan narsani boshqalar uchun ravo ko'rsak yaxshimi? o'stlarimizdan yoki tanish bilishlarimizdan bittasi o'z sirini bizga so'zlagan bo'lsa uni saqlab og'zimizdan hech bir chiqarmaslik va hech kimga bildirmaslik burchimizdir. Bir inson o'z qaygu alimini, og'ir holda qolganini yoki xato qilganini o'z do'stiga so'zlay oladi. Uning bunday maqsadi qayg'usini biroz ketkazish, do'stining shirin so'zlari bilan o'zini ovitish edi. Do'sti uning so'zlarini hammaga yoyib yuborsa u vaqtda do'stlikning qanday qimmatini qoladi?. Chin, samimiy do'st, do'stning qaygusiga qayg'ulanadi, shodligiga shodlanadi, do'stining ko'nglini ko'taradi. Do'stimizning shodligi o'z- shodligimiz qaygusi bo'lishi kerak, uning sirlarini hammaga yoysak, yonimizda bitta ham do'stimiz qolmaydi.

Bolalarim, bir biringiz bilan chin samimiy do'st bo'ling, urishmang, talashmang, bir - biringizni siringizni saqlang, har kimga aytib yurmang. Bir donishmandning, "xar kim tilini tiysa", tinch rohatda yashaydi, valdir-vassar bulsa, sir saqlay olmasa, falokatga tushadi"- degan so'zni unitmang. unda ham etibor va diqqat bilan kiyim kiyishga urining, kiyinishdan maqsad - issiq va sovuqdan saqlanish va odam ko'ziga yaxshi ko'rinishdir.

Toza, tiniq suv ichishga odatlanig, muz va kor suvlarini ichishdan saqlaning. har kim bilan go'zal muomilada bo'lib, tinch va totuvlik bilan yashang. Inson faqat jisimdangina iborat bo'lmasdan balki hayot fikriga ham egadir shuning uchun fikr tarbiyasi hamma uchun ham lozimdir. Ota - bobolar qilgan bu o'g'itlarga amal qilgan bolalar odobli bo'lib, kamol topganlar. Go'zal fazilatlariga ega bo'lgan bola ota-onaga, do'stlariga umuman hammmaga muruvvatli bo'ladi, axloq va poklikka rioya qiladi. O'tmish donishmandlari "insonning birinchi fazilati, boshqalarning huquqiga sharaf nomu va orzulariga hurmat va rioya etishdir", deb o'qitilganlar.

Donishmandlar aytgan hikmatlarga amal qilgan ota-bobolar bolalarga murojat etib deydilarki: Aziz bolalar, ota-onangizni hurmat qiling. Ota-onangizni hurmat qilishingiz ular sizning qoshingizda doim muhtaram ekanliklaridan dalolat beradi. Ota-onangizga faqat yoshlari sizlardan katta bo'lganlari uchungina emas, balki chaqoloqlik vaqtingizdan to yigitlik vaqtingizgacha sizlarni tarbiyalab, maktabga yuborganlar va har narsangizga diqqat fido etganlari uchun hurmat qilishga majbursiz. Umringizning har kuni har soatida sizlarga qilgan xizmatlarini esingizga tushiring. Ota-onaga hurmat butun umringiz bo'yicha eng baxtli, shodlik yoki qayg'ulik vaqtlaringizda ham davom etishi lozim, ularga ochiq yuz, shirin so'z, muloyimlik bilan so'zlang, sizlarga qilgan yaxshilik va fidokorliklarini aslo unitmang. Ba'zi vaqt qarilik ularning kayfiyatlarini buzadi, shunday vaqtlarda ularni oviting ko'nglini ko'taring. Ularning buyurgan xizmatlarini bo'yin tovlamay ado eting.

O'tmishda rag'batlantirish usuli bola, yoshlar qilgan ishini xulq-atvorini ma'qullash, maqtash, tabriklash shaklida qo'llanilgan. Bolanig yaxshi xatti harakatini xulqini ma'qullash, unga ijobiy ta'sir etadi, unda kelgusida yana go'zal ishlar kilishga o'z qobiliyati va bajargan yaxshi ishlaridan faxirlanish tuygusini o'stirishga xizmat qiladi.

Taqdirlash usuli bolaning qilgan ishidan mamnunlik foydasi bo'lgan. Barakalla, raxmat, bolam omon bo'l deyish, yoqimli kulish, boshini silash, peshonasidan o'pish shaklida amalga oshiriladi.

Tanbeh usuli kichik yoshdagi bolalarga nisbatan o'rtoqlari bilan qo'pol muomilada bo'lgan, topshiriqlarni bajarmagan yoki yomon bajargan qiz bolani noo'rin ranjitgan o'gil bolaga nisbatan qo'llaniladi. Bola noo'rin qilgan xatti-harakatini tezkor takrorlaganda yoki o'ziga topshirilgan ishni bajarmaganda ogohlantirish usulidan foydalaniladi. Rizosizlik usuli jazolanishning yuqori bosqichi hisoblangan, rizosizlik bola ruhiyatiga kuchli ta'sir etgan unda ruhiy tushkunlik yuz bergan. Shu sababli bu usul xalq pedpgogikkasida kam qo'llanilgan. Ota va ona ayniqsa, ona o'gli yoki qizi tomonidan yomon xatti harakat sodir bo'lganda rizosizlik bildirilgan.

O'zbek xalq pedagogikasida man etish, buyruq berish usullari uyatli iboralar aytgan, so'kingan giyohvandlik, qimor o'ynash kabi inson sha'niga dog' tushuruvchi ishlarga berilgan o'smirlarga nisbatan qo'llanilgan.

Xalq pedagogikasida keng o'rin olgan sinash usuli bolaning odamlar va o'rtoqlari bilan muloqatda, jamoat o'rtasida mehnat munosabatlarida axloq qoidalariga rioya etishni kuzatishda qo'llanilgan, bu haqida maqollar ham ijod etilgan.

Kechirish va oliy hikmatlilik usuli bolalar faoliyatida kamchilik sodir bo'lganda qo'llangan. Ota-ona va muallim bunday vaqtda ularning kamchiliklarini kechirgani bunday ishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yordam berishni o'zlarini vazifalari deb bilganlar. Darhaqiqat, kechirish oliyjanoblik, yaxshi xulqli, ota ona va ustozlarga munosib bir sifatdir. "Kichiklardan adashish, kattalardan kechirish",- deb to'g'ri aytilgan.

Demak, xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkun:

1. Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
2. Nanuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida do'zlash, o'rnak bo'lish).
3. Nasihat berish, o'git (undash, ko'ndirish iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va hokazolar).
4. Qoralash va jazo (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar). Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to'it xil usul umumiy bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasini o'taydi, ya'ni yoshlarni mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beradi. Unda ham tushunmaganlar v kattalarning nasihat va o'gitlari orqali narsa va hodisalarning mohiyatiga etadigan bo'lishadi. Bordi-yu, bunda ham bolalar tushunmasa yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazo usullaridan foydalanishga to'g'ri kelgan. Lekin bu so'ngi chora ekanini xalq yaxshi tushunadi. Hozirgi zamon ilmiy

pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora, aniqrog'i, kam samara beradigan chora ekanini isbotlagan.

Umuman olganda xalqimiz barcha davrlarda farzand tarbiyasiga jiddiy qaraganlar. Ularni elu-yurt uchun munosib tarbiyalashda turli, bola ruhiyati va yoshiga xos usullardan foydalanishgan. Yuqoridagi xalqimiz tomonidan qo'llanilgan usullar bunga misol bo'la oladi.

IKKINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Biz tanlagan va qo'llagan pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari: kuzatish, savol-javob, anketa so'rovlari, turli mashqlar, pedagogik tajriba ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik tushunchalarining dastlabki holati haqida ma'lumot to'plash imkonini yaratdi.

2. To'plangan ilmiy dalillarni tahlil qilish xalq pedagogikasi asosida o'quvchilarda barkamollik sifatlarining shakllanganligining mavjud darajasi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini va ma'naviyatni shakllantirishga ko'maklashadigan didaktik vositalar hamda manbalarni aniqlashga yordam berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning turli usullari va metodlaridan foydalanishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

3. Olingan natijalar faqat darsda emas, balki darsdan tashqari tadbirlarda ham boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyati shakllantirish ustida izchil ish olib borish zarurligini ko'rsatdi.

4. Asosiy diqqat-e'tiborni boshlang'ich sinf "O'qish", "Odobnoma" darslarida o'quvchilar ma'naviyati shakllantirishning turli omillari va vositalaridan foydalanib, uning samaradorligini oshirishga qaratish lozimligi aniqlandi.

III BOB. Boshlang'ich sinflarda xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning samaradorlik darajasi

3.1. Barkamol avlod tarbiyasida xalq pedagogikasidagi g'oyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ni ro'yobga chiqarishning uchinchi sifat bosqichida - «ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish» O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” [2] vazifalari belgilab qo'yilgan. Chunki, mamlakatimizning taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rin olishi uchun, ta'lim tizimini yangi pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda yosh avlodning yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish, erkin fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarda bilimdonlik, faollik ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Demak, bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, qolaversa o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o'рни va roli nihoyatda kattadir. Domlamiz dots T.G'affrovaning “Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” [91] nomli o'quv qo'llamasida pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayoni haqida fikr yuritiladi: Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi.

Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilarini esa domlamiz quyidagilar, deb hisoblaydilar:

- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;

- tizimli yondashuv asosida o'quvchining o'qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;

- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini ob'ektiv baholash;

- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuning yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;

- ta'lim shakllarini optimallashtirish, qulaylashtirish;

- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;

- ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish;

- talabani faolligiga tayanib o'qitish;

- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;

- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;

- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;

- ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi;

- ta'lim samaradorligining yuqoriligi;

Aniqroq qilib aytganda pedagogik texnologiyaga asoslangan faoliyat deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi mahorat va san'at tushunilib u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonini maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim.

Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti maqsadini va har bir o'tadigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog‘liq komponentlardan iborat. Bular:

- 1) motivlar.
- 2) o‘quvchining o‘quv-bilish jarayoni.
- 3) boshqarish.

Didaktik jarayonni samarali o‘tishida motivlar muhim o‘rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo‘ladi.

Ta’limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarali bo‘la olishini ta’minlamaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion – muammoli vaziyatlarni qo‘yish yoki o‘rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo‘yilishidir.

Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o‘tgan darsni so‘rash va mustahkamlash paytida didaktik o‘yinlardan foydalanib, o‘quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo‘lgach, dars davomida o‘quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o‘rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Boshlang‘ich sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda motivlarga ko‘proq e’tibor berishi o‘quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

Tadqiqot ishimizning dastlabki bosqichlarida bolalarning barkamol insonlar etib tarbiyalashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarida fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, mustaqilligi va faolligini rivojlantirishga, tafakkurini o'stirishga qaratilgan interaktiv ta'lim olishlariga ko'mak beruvchi innovasion usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Chunki, innovasiyalar uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladigan turli-tuman tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi.

Innovasiyalar shubhasiz muhim ahamiyatga ega bo'lgan, tizimli tarzda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Innovasiyalar tashabbuslar va yangiliklar

asosida tug'ilib, ta'lim jarayonini rivojlantirishda istiqbolli ahamiyatga ega. Bunday innovasion metodlarga kichik guruhlarda ishlashning quyidagi: «Aqliy hujum», «Rolli o'yinlar», «Munozara-ringi», «Yechimlar daraxti», «Muzyorar», «Ikki qismlik kundalik», «Sinkveyn», «Klaster», «Kubiklar», «B-B-B», «Zigzag» va boshqa shakllarini misol qilib keltirish mumkin.

Boshlang'ich sinf ta'limini takomillashtirishda asosan ta'limni kichik guruhlar asosida tashkil etish «ta'lim beruvchi- ta'lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta'lim beruvchi- guruh- ta'lim oluvchi» ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni nazarda tutadi. Sinf o'quvchilari o'zaro faol harakat qiluvchi kichik guruhlariga bo'linib, ularning har-biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtirishlari o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatishga zamin yaratadi. O'quvchilar orasida jamoaviy, hamjihatlikda faoliyat ko'rsatish kayfiyati tarkib topadi.

Kichik guruhlarda ishlash an'anaviy frontal o'qitishdan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, guruhdagi ishda o'quvchilar faol ishtirok etadilar, o'ziga berilgan topshiriq ustida mustaqil fikrlab, ishlaydilar.

Ikkinchidan, guruh ishida o'quvchilar o'z o'rtoqlari bilan birgalikda ishtirok etadilar. Ular o'zgalar tomonidan bildirgan fikr-mulohazalarni birgalikda muhokama qiladilar. Fikrlarni tushunishga erishish uchun o'quvchilar bir-birlarini e'tibor bilan tinglashga o'rganadilar. Bir-birlariga savollar beradilar va o'zaro yordamlashishga odatlanadilar.

Uchinchidan, alohida iqtidorga ega bo'lgan o'quvchilar guruhdoshlarining e'tiborlarini jalb qilmagan holda o'z bilimdonliklarini namoyon qilishga erishadilar. Ba'zi o'quvchilar o'zgalarning «o'zini ko'rsatmoqchi», «o'qituvchining erkatoyi» kabi so'zlarni eshitishni istamay, o'z qobiliyatini ko'rsatishdan cho'chidi. Guruhli ishlash jarayonida esa bu muammo o'z-o'zidan bartaraf etiladi. A'lochi o'quvchilar esa o'z bilimlari va tajribalaridan guruhdoshlari bahramand bo'layotganligidan ruhlanadilar.

O'quvchilar guruhda ishlash davomida o'zlarini ancha erkin tutadilar. Noto'g'ri javob berib, uyalishdan cho'chiydigan bolalar ham o'z bilimini namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. U o'zi fikri boshqalar tomonidan qadrlanayotganligiga ishonch hosil qiladi. Bu jarayonda sinfdagi tortinchoq o'quvchilar ham ancha faollashadilar. Guruh bo'lib ishlash ularda o'zlariga ishonch hissini tug'diradi. 4-5 o'quvchidan iborat guruhda tortinchoq o'quvchi o'zini 34-35 o'quvchi oldida javob berish holatidan ko'ra erkinroq sezadi.

Guruhda ishlash kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning atrofdagilarga bo'lgan munosabatni o'zgartiradi, «men va ular» kategoriyasidan «biz» kategoriyasiga o'tishni ta'minlaydi va o'quvchiga o'zini guruhning bir bo'lagi sifatida his qilish imkonini beradi.

O'quvchilar guruhlarda ishlar ekanlar qanday bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishlari lozimligini aniq belgilash kerak. O'qituvchi quyidagi savollar ustida o'ylab ko'rishi lozim: Bajariladigan ish qanday maqsadni ko'zlaydi? Nima uchun bolalar shu narsani bilib olishini istaysiz? Rejalashtirilgan ishlarning hammasi amalga oshishiga ishonasizmi? Bunga erishish uchun ixtiyoringizda qancha vaqt bor?

- Boshlang'ich sinflarda guruhlarda ishlash joyini tayyorlash ham muhim ahamiyatga ega. Guruhlardagi ish odatdagi sinf joylashishiga o'zgartirish kiritishni talab qiladi. Quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi:
- guruh qanday ish bilan mashg'ul bo'ladi;
- kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sinfda yura olishlari mumkin bo'lsin;
- guruh o'quvchilari bir-birlarini ko'rishlari va tinglashlari mumkin bo'lsin;
- guruhlarga iloji boricha rang-barang didaktik materiallar tarqatilishi kerak;
- boshqa turli qo'llanma va materiallardan foydalanish qulay bo'lsin.

Guruhlarga topshiriqlar yozma yo'riqnoma shaklida berilganda, u quyidagi talablarga javob berishi kerak: yo'riqnoma har bir o'quvchiga tushunarli tilda yozilishi, kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'qituvchi yordamisiz foydalana olishi

uchun aniq va mufassal bo'lishi; topshiriq bilan birga yozma ishni bajarish uchun kerakli material va varoqlar berilishi; kutiladigan natijalar aniq ko'rsatilishi lozim.

- O'quvchilar guruhda ishlash davomida quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

- topshiriqlarni bajarishda guruhning barcha a'zolari bilan teng ishtirok etish;

- har bir o'quvchi zarur bo'lganda o'qituvchidan kerakli yordam olishi;

- har bir o'quvchi o'rtoqlariga ko'maklashishi;

guruhning har bir a'zosi gurudagilarning fikrini tinglashi kerak.

Ta'lim oluvchilarni guruhlariga belgilari bo'yicha (a) ixtiyoriy yoki noformal belgilari bo'yicha tuzilgan aralash guruhli; o'quv darajasi yutuqlari bo'yicha; psixologik jihatdan bir-biriga to'g'ri kelishi darajasi bo'yicha), soni bo'yicha (a) 2-5 kishilik - uncha katta bo'lmagan vazifalarni bajarish uchun; b) 5 - 7 kishilik - murakkab vazifalar uchun); vaqt bo'yicha bo'lish mumkin.

1. Guruhli ishlashda birinchi mashg'ulot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

2. Guruh a'zolari o'qituvchi tomonidan tanlanishi;

3. Ular orasidan guruhni boshqara oladigan o'quvchini etakchi sifatida saylab qo'yishi;

4. Har bir guruh tarkibiga yuqori o'zlashtirish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilarni teng ravishda kiritishi;

5. Uncha faol bo'lmagan o'quvchilarni ham guruhlariga teng taqsimlashi;

6. Guruh a'zolari va boshlig'ining o'quv vazifalarini tushuntirishi;

7. Har bir guruhning doira shaklida o'tirishini ta'minlashi;

O'qituvchi muhokama yakunida o'z xulosalarini bayon etishi kabilar.

O'quvchilarda guruhda ishlash ko'nikmasi hosil bo'lgach, ular bilan turli didaktik o'yinlar, dars munozaralari tashkil qilish mumkin. Guruh tuzishning bir qator usullari mavjud. Ular jumlasiga «Sherigingni top», «Cho'p tanlash», «Yoqtirganingni tanla» kiritish mumkin.

O'quvchilarni o'zbek xalq maqollari va ertaklari bilan tanishtirishda pedagogikada keng tarqalgan innovasion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shulardan biri-“Breynshtorming” (“Aqliy hujum”) metodidir.

Breynshtorming – g'oyalarni generatsiya qilish metodi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kichik guruhlariga birlashgan holda muammoni echishga harakat qiladilar: uni echish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar (generatsiya qilishadi). U ishtirokchilarni o'z tasavvurlari va qarashlaridan foydalanishga rag'batlantiradi.

«Aqliy hujum»ning vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdan iborat. Bu usul muammoni hal qilayotgan o'quvchilarni ko'proq mustaqil fikrlashga va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. Masalan, 2-sinf O'qish kitobida keltirilgan “O'r to'qmoq” ertagi o'tilganda o'quvchilar kichik guruhlarida ishlab, ertakni bo'limlarga bo'lib hikoya qiladilar, har bo'limga guruhlar sarlavha qo'yadilar. Guruhlar yaxshilik, mehr-oqibat, yaxshilikning erda qolmasligi, va'daga vafo qilish kabi tushunchalarining mag'zini chaqishga harakat qilishadi. Ertak yakunida keltirilgan “Yaxshini yomon kunda sina”, “O'z zararingga bo'lsa ham haqni gapir” maqollarini mazmunini guruhlar sharhlaydi.

Bunda o'quvchilar tomonidan bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va yanada kengaytirish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu uslub barcha didaktik funksiyalarni bajaradi, lekin uning asosiy vazifasi - muammoni mustaqil tushunish va echishga dav'at etishdan iborat bo'lib, ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini uyg'otishdan iboratdir.

Ta'lim oluvchilar faolligini oshiruvchi, ularning fikrlash ko'nikmalarini shakllantiruvchi qator metodlar mavjud bo'lib, shulardan biri sinkveyn strategiyasidir.

Sinkveyn-fransuz tilida «besh qator» ma'nosini bildiruvchi pedagogik strategiya. Sinkveyn-ma'lumotlarni umumlashtirishga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi tilidan turli variantlarda ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish-murakkab fikr, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan ko'nikmadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzishda quyidagilarga amal qilish kerak:

1- qator: Mavzu birgina so'z, ot orqali ifodalanadi.

1- qator: Mavzu ikki so'zdan iborat sifat bilan ifodalanadi.

2- qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakat uchta so'z orqali ifodalanadi. Bu so'zlar fe'l yoki ravishdosh bo'lishi lozim.

3- qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan yaxlit fikr ifodalovchi gap yoziladi.

4- qator: Mavzuni takrorlaydigan, birgina sinonim so'z yoziladi.

- Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo'ladi:
- murakkab axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;
- o'quvchilar tushunchalarining yig'indisini baholash vositasi sifatida; ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Sinkveynlar murakkab axborotlarni umumlashtiruvchi, o'quvchilarning fikrlarini baholovchi va fikr ifodalovchi vosita sifatida muhim didaktik ahamiyatga ega. Masalan:

Ertak

Qiziqarli, sehrli.

Tarbiyalaydi, yuksaltiradi, ovutadi.

Ertaklar bolalarni yaxshilikka etaklar!

Cho'pchak.

Odob

Go'zal, namunali

Rivojlanadi, shakllanadi, yuksaladi

Odobli bola elga manzur.

Axloq.

Yoki barkamol soʻziga quyidagicha sinkveyn tuzish mumkin:

Barkamol,

Yetuk, namunali

Shakllanadi, yuksaladi, yuksaltiradi.

Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori

Yetuk

Bu metodi orqali o'quvchilar bilimi faollashadi, ularning darsga qiziqishi ortadi va o'rganilayotgan mavzuga tiyanroq nazar tashlashga harakat qila boshlashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tajribaviy darslarda muayyan mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam berish uchun klaster-pedagogik strategiyasidan foydalanildi. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi.

Klasterlarga ajratish- «Klaster» so'zi “g'ujm”, “bog'lam” ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni motivasiya, o'zlashtirilgan bilimlarni idrok etish va refleksiya (mulohaza qilish) bosqichlaridagi fikralashni rag'batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg'otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi.

1. Boshlang'ich sinflarda odatda yangi mavzu tushuntirilishiga qadar klaster tuziladi. Klasterni tuzishda quyidagi ketma-ketlik inobatga olinishi maqsadga muvofiq:

2. Katta varog' qog'ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki tayanch ibora yoziladi;

3. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va assosiativ so'z va iboralar yoziladi;

4. Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog'lanishlarni belgilash;

5. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi;


6. Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Yozilgan barcha so'z va iboralar o'rtasidagi aloqalar, uzviy bog'lanishlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinib, belgilab boriladi.

Klaster tuzishda guruhdagi barcha o'quvchilarning ishtirok etishi, shu guruh uchun g'oyalar o'zagi bo'lib xizmat qiladi.

Joriy faoliyatlari natijasida vujudga keladigan muammolarni hal etishga mo'ljallangan hamda mavjud o'quv axborot materialiga tayanishga asoslangan kubiklar metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarini tafakkurini o'stiruvchi samarali metod bo'lib hisoblanadi.

Masalan, barkamol inson fazilatlarini o'quvchilarga tushuntirishda quyidagicha klaster tuzish mumkin:



Kubiklar - o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Har tomonlama fikrlashga yordam beradigan har xil yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan kubik ishlatiladi.

Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-20 sm bo'lgan qutichaga qog'oz yopishtirib, rang-barang kubik yasash mumkin. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida alohida qiziqish uyg'otadi. Kubikning har bir tomoniga quyidagi oltita yo'l-yo'riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, o'zaro bog'lanishni ko'rsating, buni tahlil qiling, buni qo'llang, dalillar yordamida yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating. Masalan, o'quvchilarga “Zumrad va qimmat” o'zbek xalq ertagining mazmunini so'zlab bergandan so'ng, bolalarga kubiklardan foydalanib, Zumrad va Qimmatning hislatlarini ajratishlarini topshirish mumkin. Shu tariqa bolalar qaysi qahramoning barkamol inson ekanligi, qaysi biri esa aksi ekanligi anglab oladilar.

jadval

***O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun kubiklarda ifodalangan
yo'l-yo'riqlar***

1-tomon	2-tomon	3-tomon	4-tomon	5-tomon	6- tomon
Ertakni tasvirlang. Uni diqqat bilan eslang. (faqat xayolingiz da) Zumrad va Qimmatning xususiyatlari va hokazolarni aytib bering	Qahramonlarni taqqoslang, ular kimlarga o'xshaydilar?	Ertak sizga nimani eslatdi, Xayolingizga nimalar keldi? Bir-biriga o'xshagan yoki farqlanadigan narsalar bo'lishi mumkin.	Ertakni tahlil qiling. Uning yakuni haqida xulosa chiqaring, kimning va nima uchun taqdirlanganligini eslang.	Siz Zumradga o'xshashni estaysizmi, agar Qimmat Sizning o'rtog'ingiz bo'lganda qanday ish tutar edingiz.	Dalillar yordamida narsa va hodisalarning yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsating. Ishonchli dalillarni topishga harakat qiling.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol insonlar etib tarbiyalashda turli interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini biz tadqiqot jarayonida kuzatdik.

3.2. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda barkamol avlodni tarbiyalash yo'llari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda darsdan tashqari ishlar muhim rol o'ynaydi.

Shuning uchun ham biz boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda darsdan tashqari ishlar metodikasini ishlab chiqishga harakat qiddik. Bu o'rinda ma'lum pedagogik shartlarga tayandik, ya'ni: darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish va o'tkazishda milliylik tamoyiliga asoslanish; tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishga yangicha metodologik yondoshuv; tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda mustaqillik talablaridan kelib chiqish; o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda amaliyot, hayotiy tajribaga asoslanish; tarbiya nazariyasi va didaktikadagi hozirgi zamon ilg'or g'oyalariga tayanib darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samarali shakl va metodlaridan unumli foydalanish va h.k.

Boshlantich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishning samaradorligini ta'minlashda uni amal qilish qamroviga ko'ra tasnif etish muhim ahamiyatga ega ekanligi tajribalar jarayonida namoyon bo'ldi.

1.Yakka, guruh va ommaviy shakllarda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar:

- A) darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar;
- B) maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar;

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar esa:

- A) dars jamoasi bilan o'tkaziladigan ishlar;
- B) sinflararo tashkil etiladigan tarbiyaviy mashg'ulotlar;
- V) umummaktab jamoasi bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlar.

Maktabdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarga:

- a) oilada olib boriladigan tarbiyaviy mashg'ulotlar;
- b) jamoatchilik hamkorligida o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlar;
- v) maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar.

Mazkur tasnif asosida uyushtirilgan tarbiyaviy tadbirlar xarakteriga binoan quyidag‘i shakllarda amalga oshirildi:

- ertalik ;
- ko‘rik-tanlov;
- sayohat;
- tarbiyaviy soat;
- davra suhbat;
- ijtimoiy foydali mehnat asosida va boshqalar.

Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida barkamollik sifatlarini tarbiyalashda quyidagilarga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni o‘quvchi dars jarayonida olgan nazariy bilimlarni mustahkamlashga, to‘ldirishga xizmat qilishi;

har bir tarbiyaviy tadbir shaklining o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlariga, qiziqishlariga, ma’naviy talab va ehtiyojlariga mos bo‘lishi;

- uyushtiriladigan tarbiyaviy tadbirning o‘quvchi kundalik hayotning tarkibiy qismiga aylanib qolishiga erishish;

- tarbiyaviy ishlarning noan’anaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalanishga alohida e’tibor berish;

- tarbiyaviy tadbirning ixtiyoriylik, tashabbuskorlik tamoyillari asosida tashkil etilishi;

- tarbiyaviy ish mazmunining o‘quvchi oila va jamoatchilik ta’sirida egallagan malaka va ko‘nikmasiga mos bo‘lishi, bir-birini to‘ldirishi, mustahkamlashi.

Har qanday tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyati maktab sharoiti, o‘quvchi va o‘qituvchilarning imkoniyati, ta’lim va tarbiya vositalarining mazmuni, ijodiy mehnatga bog‘liq. Shuningdek, u ma’lum bir maqsadda tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

U tematik, erkin mavzu, o'quvchi talab va ehtiyoji asosida u yoki bu vaziyatda o'tkazilishi mumkin. Tematik tarbiyaviy tadbirlar sinf o'quvchilarining umumiy saviyasi, dunyoqarashi, tarbiyaviy ish rejalarida mavzuning qo'yilishi nuqtai-nazarida uyushtiriladi va o'tkaziladi.

O'quvchilar bu mavzular yuzasidan ma'ruzalar, hikoyalar, taassurotlar tinglaydilar. Ularning barkamol inson haqidagi nazariy tushunchalarini sayohatlar, ko'rgazmali vositalar, tematik kliplar vositasida mustahkamlaydilar.

Erkin mavzudagi tarbiyaviy tadbirlar o'quvchini qiziqtirgan mavzudagi ixtiyoriy mavzu asosida o'tkaziladi. Albatta, bunday tadbirlarning tarbiyaviy imkoniyatlari nazarga olinmog'i lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarda mazmun ma'lum kompozitsion tuzilishi shakliga keltirilishi uchun undagi bayon etish va ta'sirchan vositalar bir-biri bilan uyg'unlashtiriladi. Aks holda o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirning mazmuni ta'sirsiz, shakli samarasiz bo'lib qoladi. Har bir darsdan tashqari tarbiyaviy tadbir ta'limiy, tarbiyaviy xarakter bilan birga, xalq tomonidan asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy qadriyatlarni tiklash, ommalashtirishda targ'ibot, tashviqot va axborot xarakteriga ham egadir.

Shuning uchun bu xarakterli xususiyatlarni nazardan qoldirmaslik uchun, ularni mazmunan mantiq talab qilgan ta'sirchan vositalar bilan boyitish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashga yo'naltirilgan darsdan tashqari ishlarni mazmunan boyitish, turli vositalardan unumli foydalanish — bu tadbirning ta'sirchanligi va samaradorligini oshiradi. Shuning natijasida ta'sir kuchi yuqori bo'lgan turli mavzudagi tarbiyaviy tadbirlar vujudga keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi u yoki bu tarbiyaviy tadbirni uyushtirish va o'tkazishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi, kuzatadi, xulosa chiqaradi, o'z-o'zining bilim, malaka va kunikmalarini shakllantirib boradi.

Tadqiqotlar jarayonida shunday xulosaga kedikki, халқ педагогикаси asosida o'tkazilgan darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ixtiyoriylik, ommaviylik, mazmun milliyliigi, shakl rang-barangliigi va qiziqarliligi, ta'sirchanlik, nazariy ma'lumotlarning amaliy hayot bilan aloqasi, o'quvchining barkamol inson haqidagi tasavvurlarini boyitishga yo'naltirilganliigi kabi pedagogik tamoyillarga amal qilish samarali natijalar beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini tarbiyalashda o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqlarini o'stirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili, adabiyot fanlari bo'yicha darsdan tashqari vaqtda 2-sinfda olib borilgan "Ona tilim-aziz tilim" mavzuida o'tkazilgan ijodiy mashg'ulotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda xalq pedagogikasi: ertaklar, maqollar, rivoyatlar, afsonalar, matallar, dostonlar orqali o'rgatiladi. Mashg'ulot jarayonida fanlararo o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir ta'minlanadi; o'quvchilarning fikrlash, tasavvur va tafakkur qilishiga erkin imkoniyat yaratiladi; ko'rgazmali tarbiya vositalaridan foydalanish zamirida tabiat, jamiyat hodisalarini tasviri va ularning tabiiy hayotini qiyosiy o'rganish malaka va ko'nikmalari hosil bo'ladi. Tajriba guruhi o'quvchilariga turli mavzudagi didaktik rasmlar yuzasidan o'quvchilarga mustaqil topshiriq berish orqali gap tuzdiriladi. Har bir o'quvchi rasmlar haqida o'z fikr-mulohazalarini aytib bergandan so'ng birgalikda rasmlar analiz va sintez - qilinadi. Tajriba sinflarida "Oila davrasida", "Ona tabiat sahovati", "Bolalar hosil yeg'im-terimida" kabi rasmlardan foydalanib o'tilgan dars o'quvchilarda barkamollik sifatlarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Shunday darslardan birini biz quyidagicha tashkil etdik. Biz doskaga 4-sinf O'qish darsligidagi [52] "Oila davrasida" rasmini osib qo'ygach "Rasmda siz nimalarni ko'rayapsiz?" degan savolga o'quvchilar; "Ahil va inoq oilani ko'rayapmiz" deb javob qaytaradilar, "Rasm bo'yicha kim qanaqa gan tuza oladi?" savoli asosida bolalar quyidagi jummalarni tuzdilar: "Oila katta va inoq. Oila boshlig'i bobo va buvi. Hamma dasturxon atrofida yig'ilgan. Oila boshliqlari dasturxon to'rida

o'tirishibdi. Bolalar kattalardan so'ng taomga qo'l uzatadilar. O'y fayzli" va boshqa fikrlarni aytishdi.

Shundan keyin o'quvchilar mustaqil ravishda tuzgan gaplarini esda qoldirishga harakat qiladilar va yoza boshlaydilar, O'quvchilar gaplarning bosh bo'laklarini aniqlaydilar, mazmunini idrok etadilar. Bu esa o'quvchilarda oilaning muqaddas ekanligi, oila a'zolari hamma vaqt bir-birlariga hurmat va izzatda bo'lishlari lozimligini anglab yetadilar.

Bunday ijodiy mashg'ulotda sinfdagi qoloq o'quvchilar ham mashg'ulotga faol kirishib ketadilar. Shunday bo'lsada o'quvchilar bilan individual ish olib borish taqozo etiladi.

Ta'lim-tarbiyada o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish pedagogikaning asosiy tamoiyillaridan biridir. O'quvchilar bilan individual ishlashni tashkil etish, ularning usullarini yaxshi bilish har bir o'qituvchi uchun nihoyatda zarurdir. Chunki pedagogik talab boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bunday o'quvchilarning jismoniy, aqliy va psixologik kamolotini, insonlar haqida fikr yuritish qobiliyatini, shuningdek, ularning diqqat e'tiborini, xotirasi va sezgi organlarining faoliyatini, his-tuyg'u, idrok, iroda, tasavvur, tafakkur, xarakter xususiyatlarini tarbiyalash imkoniyati paydo bo'ladi.

O'quvchilarga barkamol insonning barkamollik sifatlarini tushuntirish, unga ijodiy munosabatni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan individual ishlarni birinchi darsdan boshlanmog'i kerak. Chunki bolaning bilish darajasi uning yosh xususiyatlariga ko'ra o'sib boradi. Bolalardagi idrok, tafakkur, tasavvur, iroda, xarakter, o'quv qobiliyati bir xil bo'lmaydi. Ular orasida vatanni sevadigan, uni ko'z qorachig'idek avaylab-asrashga mayli kuchli, mehnatga muhabbat qo'ygan, ma'naviyatli, millatidan g'ururlanadigan bolalar bilan bir qatorda tevarak-atrofga beparvolik bilan munosabatda bo'ladigan, mehnatni sevmaydigan, loqayd,

e'tiborsiz, erkato'y, xasis bolalar ham uchraydi. Shunga ko'ra o'qituvchi bolalar bilan ishlashda turli metodlarga tayanib ish ko'radi.

Jumladan, tajriba sinflarida (4-sinf) "Ajdodlarimiz ardoqlagan qadriyatlar" rasmi bo'yicha tashkil etilgan mashg'ulotda turli metodlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining barkamollik sifatlarini darajasini oshirishga muvaffaq bo'linadi. Mashg'ulotda o'qituvchi dastlab o'quvchilarning rasm asosida milliy qadriyatlarimiz va ularning turlari bo'yicha bilim darajalari, tasavvurini bilish maqsadida "Bu rasmda nimalar tasvirlangan?", "Qanday bayram nishonlanmoqda?", "bahorda qanday ishlar bajariladi?" kabi savollar bilan murojaat qiladi.

Bolalar Navro'z bayramini ko'z oldiga keltirgach, berilgan savollarga "Navro'z bayrami nishonlanmoqda. Momolarimizning sumalak pishirish jarayoni tasvirlangan. Bahor fasli. Bahorda ekin ekiladi. Qizlar bayramda milliy liboslarni kiyadilar." kabi javoblarni aytadilar. Bu savol-javoblar orqali o'quvchilarning Navro'z bayrami haqidagi tasavvurlari kengayadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchining o'qish tezligi, savodxonligi, tabiatga munosabat asosidagi xatti-qarakati, ahloq-odobidagi kamchiliklar aniqlanadi, individual ishlashni talab etadigan o'quvchilar aniqlanadi. Bularni oldini olishda o'quvchining kayfiyati kuzatib boriladi; tabiatga muhabbat darajasi o'rganiladi; mehnat, o'yin faoliyatining xarakteriga e'tibor, hayvonot, o'simliklar olamiga munosabat, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik ishlariga moyilligi, muhabbati tahlil etiladi, ularni rivojlantirishga e'tibor beriladi.

Har bir bola maktabga qadam qo'ygunga qadar ma'lum insonlar va ularning ma'naviy dunyosi haqida bilimga ega bo'ladi. O'qituvchining vazifasi dars va darsdan tashqari vaqtda o'quvchida xalq pedagogikasi asosida barkamollik sifatлари bilim darajasini o'rganish zamirida har bir mavzu, mashg'ulotga taalluqli bo'lgan tushunchalarni kengaytirishning metod va usullarini belgilab olishdan iboratdir. Bu esa o'quvchilarning inson ma'naviyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishi, intilishi,

faolligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini egallashga harakatni kuchaytirish uning ma'nosini emotsional tushuntirish qobiliyatini tarbiyalashdan boshlanadi.

Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida rasmga qarab hikoya qilish, bayon yozdirish, og'zaki va yozma savol-javoblardan foydalanish o'quvchilarning fikrlashi, dunyoqarashi, qobiliyati va do'stlari va yaqinlariga nisbatan mehr-oqibatning o'sishiga ko'maklashadi.

Mashg'ulotlar jarayonida faqat ta'lim-tarbiyadagi bir hil metodlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmasdan, o'yinlar shaklidan ham keng foydalanish samarali natijalar beradi. Chunki, o'yin bolalarning ijodiy hamda mustaqil faoliyatidir. Shuni nazarda tutib ta'lim-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ayrim ahdoqiy xarakter va xususiyatlarni tarkib toptirishda mehnat yoki o'qishdan ko'ra o'yin muhim rol o'ynaydi. O'yin bolalarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni, ahloqiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

O'yin bolalarda chaqqonlik, ziyraklik va aniq hamda tez harakat qilish, shuningdek, mustaqillik, tadbirkorlik, o'rtoqlik va boshqa ahloqiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi. O'yinlar bolalarni kattalar olamiga olib kirishga, ularga hayotni, voqelikni to'g'ri anglashga yordam beradi.

Tajribalar jarayonida 4-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan "Mehnat va o'yin" ertaligi bolalarning o'yin faoliyati mehnat bilan bog'liqligiga, o'yin orqali ularni mehnatga qiziqtirish va mehnatsevarlikka o'rgatishning muhim omili ekaniga ishonch qosil qilishda katta yordam beradi. Ertalikdan ko'zlangan maqsad asosan o'quvchilarga mehnatni qadrlash, o'yinda ham, mehnatda ham g'ayrat-shijoat ko'rsatish chaqqon harakat qilish zarurligini tushuntirish, mehnat sharoitining yaxshilanishi, toza-ozodaligi, mehnat unumdorligi, inson salomatligi uchun muhim omil ekanligini ongga singdirish, epchil harakatchan bola o'yinda

gʻolib chiqqanidek epchillik bilan ishlaydigan uddaburro, saranjom-sarishta, rejali ishlaydigan odamning mehnati unumdor boʻlishini anglatishdan, boshlangʻich sinf oʻquvchilarida mehnatga muhabbat hissini uygʻotishdan iborat boʻldi.

Oʻquvchilar ertalikda bahor faslida hamma mavjudotlarning oʻygʻonishi, tabiatda harakat boshlanishi oʻqituvchining "Mehnat deganda nimani tushunasiz?", "Qachon dehqon mehnatni boshlaydi?", "Halol mehnat insonni nimaga boshlaydi?" kabi savollariga bergan javoblari orqali mohiyatan anglab yetiladi. Oʻquvchi qizlardan biri "Mehnat deganda uy supurishni, yer chopishni, idish-tovoqlar yuvishni, gul ekishni, kiyim tikishni, oʻqish va yozishni tushunaman". Yana bir oʻquvchi shunday deydi: "Mehnat — shodlik, quvonch. Insonni baxti mehnatda".

Ertaliqda oʻquvchilar foydalanilgan xalq pedagogikasi materiallaridan ham mehnatning inson hayotida tutgan oʻrnini anglab yetadilar. Mehnat insoniyatning mehnat qilishga ehtiyoji paydo boʻlgandan boshlab vujudga kelganligini anglab yetadilar. Bu esa oʻquvchilar keltirgan

Ish ishtaha ochar

Dangasa ishdan qochar.

Koʻp ishlagan odamning Tani joni sogʻ boʻlar.

Mehnat, mehnatning tagi rohat.

Ishning oʻzini bilguncha, Uning koʻzini bil.

Kishining eng sodiq doʻsti mehnatdir.

Insonning qoʻli gul.

kabi xalq maqollari mohiyati orqali oʻquvchi ongiga singdiriladi. Ertalikda oʻquvchilar uyda onalariga yordamlashish, maktabda shanbaliklarda ishtirok etish, sinf xonasini tozalashga qatnashish, navbatchilik qilish va hokozolar jismoniy mehnatga hamda oʻqish, yozish, rasm solish, hisoblash va boshqalar aqliy mehnatga kirishi, aqliy va jismoniy ishlarni galma-gal bajarib boradigan kishi sogʻlom boʻlishini anglab yetadilar. Albatta, buning uchun taʼlim-tarbiyaning

savol-javob metodidan foydalanish, erkinlik, ijodkorlik, faollik tamoyillariga amal qilish samara beradi.

O'quvchilar o'qituvchining "Mehnat haqida qanday qo'shiqlarni bilasiz?", "Mehnat darslarida nimalarni o'rgandingiz?", "Mehnat jarayonida nimalarga e'tibor berish kerak?" kabi qator savollariga bergan javoblari ularning kishilar mehnati bo'yicha qay darajada bilimga ega ekanligini namoyon etadi. Jumladan, o'quvchilarning savollarga javoblari shunday bo'ldi:

- o'ziga o'zi xizmat qilishni;
- plastilin bilan ishlashni;
- choklar tikishni;
- qog'ozdan shakllar, narsalar yasashni;
- ish joylarini tozo-ozoda bo'lishini;
- mehnat maxsullarini chiroyli, did bilan yasash, tikishni.

Ertalikda o'qituvchi o'quvchilarga mehnat bayrami tarixi haqida ma'lumot berish zamirida mehnatning badiiy-estetik, ahloqiy xususiyatlari ongiga singdiriladi. Bahordagi birinchi mehnat kuni qadim paytlardan boshlab nishonlanib kelinmoqda, Ana shu kundan boshlab qish bo'yi dam olib yotgan yerlarga ishlov berish, unga urug'lar sepish boshlanadi, Bu bayramni "Shox moylar", "Birinchi urug' qadash", "Qush chiqarar", "Sust xotin", "Choy momo" marosimlari arafasida shahar va qishloqlarda obodonlashtirish, toza-ozodalikni saqlash uchun xalq hashari — shanbaliklar o'tkaziladi. Xalq bunday kunlarni o'yin-kulgi bilan qarshi oladilar va ishda o'z mahoratlarini namoyish etadilar.

O'quvchilar ushbu mehnat bayramlarini mehnat darslarida o'tilgan mavzular, o'ynalgan o'yinlar yuzasidan uddaburro chaqqonlar mavzuidagi yangi nomer tayyorlash bilan kutib oladilar.

Mashg'ulot qoidasi va uni o'tkazish tartibi e'lon qilingach, ishtirokchilarga qog'oz bilan ishlash bo'yicha geometrik figuralar va urug' uchun paketchalar tayyorlash, plastilin bilan ishlash bo'yicha choklar tikish va tugmacha qadash kabi

topshiriqlar beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarayotgan paytlarida sinfning qolgan o'quvchilari tomonidan navbatma-navbat she'rlar o'qiladi, qo'shiqpar aytiladi, qizlar raqsga tushishadi, turli o'simliklar (makkajo'xori, paxta, bug'doy) maskalarini kiygan o'quvchilarning chiqishlari namoyish etiladi. "Bahor vals" kuyi, "Kecha, bugun va erta haqidagi ertak", "Yosh hunarmandlar qo'shig'i" va hokozolar tinglanadi, Bulardan tashqari bolalar bilan mehnat, ishchi va dehqonlarning faoliyati haqida savol-javob o'tkaziladi, "Topar bo'lsang topa qol" o'yini o'ynaladi. Bu mehnat mashg'uloti jarayonida o'quvchilarning

—chaqqon harakat qilishlari;

—berilgan vazifani qay darajada sifatli

bajarganliklari;

- ish o'rnining toza-ozodaligi, estetik holatni vujudga keltirganligiga e'tibor beriladi.

Ular esa o'z qobiliyatlari, tirishqoqligi, mehnatta munosabati bilim darajasini amaliy faoliyatlari orqali namoyon etishga muvaffaq bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan darsdan tashqari vaqtda olib boriladigan to'garaklarning tarbiyaviy ta'siri bla hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, maktablarda "Yosh matematiklar", "Yosh tabiatshunoslar", "Mohir qo'llar" to'garagini tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasiga katta yordam beradi, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo'shib olib borishni ta'minlaydi. O'quvchilarni tabiat, insonlar mehnati, hayvonot olamiga bo'lgan mehr-muhabbatini oshishiga zamin yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari to'garak mashg'ulotlari jarayonida kattalar mehnatining o'ziga xos xususiyatlari, uning inson maishiy turmushida tutgan o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar oladilar. To'garak a'zolari ish faoliyatlari jarayonida mehnat ko'nikmasi va malakalari bilan qurollanib boradilar. Bu turli mehnat mahsulotlari yasash, hayvonlarni parvarish qilish, ko'paytirish ishlarini amalga oshirish davrida shakllantiriladi. Tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf

o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda tugarak a'zolariga mo'ljallangan qoidalar, shart-sharoitlar muhim vosita hisoblanadi. Bunda bolalarga 2ta nazorat daftarlari tutishlari tavsiya etiladi.

Bunday nazorat daftarlarini 2 xidda tashkil etish mumkin.

- 1.To'garak a'zolari uchun to'garakda amalga oshirilayotgan ishlarni qayd qilib boriladigan umumiy kundalik.
- 2.To'garakning har bir a'zosi navbatchilik jarayonida o'z kuzatishlari natijalarini, nuqtai-nazarlarini, taklif va mulohazalarini yozib boradigan yakka tartibda yuritiladigan kundalik.

Ushbu nazorat kundaliklarida o'quvchilar bajarilayotgan ishning maqsad va vazifalari, uni borishi, kuzatish natijalari, xulosa va takliflarni batafsil yozib boradi va ularni to'garak yig'ilishlarida axborot, ma'ruza tarzida bayon etadi. Shu yo'sinda to'garak a'zolari tanlagan fanlari va kasbiy yo'nalishlariga mehr-muhabbat quyishga muyassar bo'ladilar.

To'garak mashg'ulotlarida o'quv materiallarini bayon qilish - davrida ko'rsatmali va texnik vositalardan o'rni bilan foydalaniladi. Jumladan, bu mashg'ulotda o'quvchilarga narsalarning rasmi va boshqalar ko'rsatiladi. Inson faoliyati, uning hatti-harakati bilan bog'liq tushunchalarni berish jarayonida diafilm kadrlarini namoyish qiladi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "Men sevgan ertak qahramoni" devoriy gazetasi, "Xaftaning faol o'quvchisi" ko'rik tanlovi, "Yaxshilik har kimga yarashar" mavzuida konferensiya, "Yurtni asrang" oyligini tashkil etish o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda ijobiy samara beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda ko'rgazmali kompozitsiyalardan keng foydalanish muhim rol o'ynaydi. O'quvchi birinchidan, kompozitsiyani o'z tafakkuri, bilim darajasi, tasavvuri asosida bunyod etadi. Ikkinchidan, amaliy faoliyat jarayonida o'rtoqlari va kattalar bilan

munosabatga kirishish malakasi oshib boradi. Uchinchidan, insonlarga yaxshilik qilish bo'yicha turli harakatlarga faol ishtirok etish ishtiyoqi shakllanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida xalq pedagogikasi asosida tarbiyalashda yaxlit nom asosida tashkil etiladigan ko'rgazmalarning ta'siri katta. "Ko'rgazma 2014" ko'rgazmasida "Yer sharini bolalarga beramiz!" devoriy ko'rgazmada "Nihollarni saqlaylik!", "Musaffo osmon uchun", "Mehr-oqibatli bo'laylik!" mavzulardagi rasmlar, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan kompozitsiyalar, o'yinchokdar, tabiat haqidagi she'riy majmualar o'quvchilarda tabiatni muhofaza qilish ishida kattalardek ishtirok etish zarurligini his etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda maktab o'quvchilari uchun mashg'ulotlarning juda sevimli turi bo'lgan krossvordlar, rebuslar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq pedagogikasi asosida barkamollik sifatlarini shakllantirishd tarbiyaviy soatlarning ham roli katta. Masalan, "Bola odobi bilan go'zal" (4-sinf) mavzuida o'tkazilgan tarbiyaviy mashg'ulotda o'quvchilar quyidagi tushunchalarni egallashga muvaffaq bo'ldilar: odob-axloq tushunchasining mazmuni, odobli bolaning sifatleri, uning do'stlariga bo'lgan munosabati, odobli bolaning kiyinishi va boshqalar. Shuningdek, ota-bobolarimizning bu sohadagi tajribalari va pandnomalari. Salomlashish odobi.

Tarbiyaviy soat mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga o'zi yashab turgan mahalladagi ayrim bolalarning hatti-harakatlari bilan bog'liq holda ularning boshqalarga ta'sirini bayon etadi. Ma'lumki, mahalladagi ayrim bolalar bekorchilik bilan mashg'ul bo'lganliklari bois ko'chada o'tgan ketganlarni mazah qiladilar, qushlar va boshqa hayvonlarga ozor beradilar. Bu esa o'z navbatida boshqa bolalarga salbiy ta'sir etadi. Bu haqda tarbiyaviy soatda tushunchaga ega bo'lgan o'quvchida mehnat bilan shug'ullanish, boshqalarning izzat nafsigaga tegmaslik hayot go'zalligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shishga ehtiyoj

shakllanadi. Go‘zallikdan zavqlanish qissi paydo bo‘ladi, Bu xulosalar esa darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uyushtirishda yanada mustahkam o‘z ifodasini topadi va keng qamrovli- xususiyatga ega bo‘ladi.

3. 3. Tajriba-sinov ishlari tahlili va samaradorligi

Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy masalalar hamda amalga oshirilgan amaliy tajribalar uning natijasini aniqlashni taqozo etadi. Yakuniy tajriba-sinov ishlari 2013-2014 o‘quv yillarida Qarshi tumanidagi 3-o‘rta umumta’lim maktabida amalga oshirilib, unda jami 57 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Tahlil natijalarining aniqligini ta’minlash maqsadida tajriba boshida tajriba va nazorat sinflari tanlab olindi va har ikkala sinfning o‘zlashtirishi va tarbiyalanganlik darajasining mutanosibligiga e’tibor qaratildi. (Bular 4 A va 4 B-sinflari edi).

Ilk tajriba sinov davrida mahoratli o‘qituvchilarning darslari kuzatilib, ularning ilg‘or tajribalari o‘rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, biz tanlagan mavzuga doir o‘qituvchilarning qiziqishlarini bilish maqsadida o‘qituvchilarni ham tjrribaga jalb etib, ularga bir qancha anketa va og‘zaki savollar bilan murojaat qilindik. Negaki, o‘quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda asosiy kuch o‘qituvchilar bo‘lib, ularning o‘zlarida barkamol inson sifatleri mavjud bo‘lishi darkor. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan anketa savollari natijasi shundan dalolat berdiki, ular ham o‘quvchilarni barkamol insonlar etib tarbiyalash hayotiy zaruriyat ekanligini qayta-qayta takrorlashdi. Bu borada xalq pedagogikasi namunalaridan foydalanish ehtiyoji mavjudligini ham aytib o‘tishdi. Ammo turli sabablarga ko‘ra ular faqat darsliklarda berilayotgan mavzular bilan chegaralanib qolayotganliklari ma’lum bo‘ldi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, kuzatgan darslarimiz davomida ham bu kamchilik namoyon bo‘ldi. To‘g‘ri o‘qituvchilar tomonidan darslar qiziqarli tarzda olib borilmoqda. Ammo barkamol inson sifatleri o‘quvchilarga darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda alohida ajratib

ko'rsatilmayapti. Yoki barkamollik tushunchasiga to'xtab o'tilmayapti, desak ham xato bo'lmaydi.

Tajriba-sinov ishlari davom ettirilib, o'quvchilarning ham biz tanlagan mavzuga nisbatan bilim darajalari turli usul va og'zaki so'rovlar asosida aniqlandi. Buning uchun tajriba va nazorat sinflari tanlab olinib, ularning natijalari har bir bosqichda solishtirib ko'rildi. Bunda o'quvchilar soni quyidagicha bo'ldi: tajriba sinfining o'quvchilari soni 30 nafarni, nazorat sinfi o'quvchilarining soni 29 nafarni tashkil etdi.

Amaliy treninglarda o'quvchilarning barkamollik sifat (xislat)larining shakllanganlik darajalari, ularning amaliy faoliyatda namoyon bo'lish holatlari aniqlandi.

Shuningdek, barkamol shaxsda ma'naviy-axloqiy sifat (xislat)larning shakllanganlik darajasi tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi uch ko'rinishda aniqlandi:

1. Darsliklarda berilayotgan mavjud bilimlarning o'quvchilar tomonidan faol qabul qilinayotganligi.
2. O'quvchilarning fanlar bo'yicha to'plagan baholarining natijalari va ularning tahlili.
3. O'quvchilarning o'zaro munosabatlari jarayonida namoyon bo'ladigan xislatlarining shakllanishi.
4. O'qituvchining o'quvchilarning xulqiga qo'ygan baholari va boshqalarni.

Ushbu ishlar ma'lum darajada sinf rahbarining sinfga oid hujjatlari va o'quvchilarning darsdan keyingi faoliyatlari asosida tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy bosqichida, tanlagan mavzular asosida noan'naviy darslar, tarbiyaviy soatlar, turli kechalarga bag'ishlangan bayram tadbirlarini tashkil etdik. Biz rejalashtirgan ishlar faqat tajriba sinflarida olib borildi.

Darslar sinf rahbarlari tomonidan olib borilib, dars ishlanmalari bizning tavsiyamizga ko'ra amalga oshirildi. Shunday darslardan biri Xalq og'zaki ijodi» bo'limiga mansub "Ertaklar mamlakatida"¹ mavzusida tashkil etildi.

Shuningdek, "Odobli bola elga manzur", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Ona tabiatni asraylik", "Yaxshilik-har kimga yarashar", "Dono xalqim" kabi mavzularida tarbiyaviy soatlar va ertalik tadbirlari tashkil etildi.

"Odobli bola elga manzur" mavzusidagi tarbiyaviy soat mashg'ulotida o'quvchilarga odobli bola haqidagi ota-bobolarimizning fikr va qarashlari, maqollarining mazmuni tushuntirilgan va yodlatilgan bo'lsa, "Vatan ostonadan boshlanadi" nomli tarbiyaviy soatda esa Vatanning yagonaligi, uning muqaddasligi to'g'risidagi ertak va rivoyatlar o'qib eshittirildi, Vatanparvarlikka oid maqollar yodlatildi.

"Ona tabiatni asraylik" mavzusidagi tarbiyaviy tadbir esa aynan bahor oylariga rejlashtirilganligi bois ushbu tadbir maktab bog'ida o'tkazildi. Bunda domlamiz N. Oripova, M. Muhammadiyeva va Y. Yarmanovalar tomonidan ishlab chiqilgan "Gullar bazmi" [] (Ilova-2) ertaligi senariysidan unumli foydalandi. Tadbir yakunida ona tabiatni asrashga har bir o'quvchilarning burchili ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi. Bunda o'quvchilarning o'zlari bilgan bahor, gullar, tabiat haqidagi she'r va qo'shiqlari, maqol topishmoqlari tinglandi.

Bizga ma'lumki, barkamol inson o'zida barcha insoniy sifatlarni mujassamlashtirishi, shuningdek unda estetik did va madaniyat shakllangan bo'lishi lozim. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan turmush estetikasiga rioya qilishga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish juda muhim sanaladi. Bu o'rinda xalq pedagogikasi namunalari: milliy an'analar (urf-odat va marosimlar)ga tayanib ish ko'rish pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi.

Uy joyni toza, ozoda saqlash va did bilan bezatish, kiyiladigan kiyimlarga bo'lgan e'tibor, soch turmagi va boshqalar, maktab va sinf xonalarini bezash, hovli-joylarni ozoda tutish shaxsdan estetik didga ega bo'lishni taqozo etadi. Shu sababli o'quvchilarda turmush estetikasini tarbiyalashda amaliy yordam beruvchi

¹ Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X. O'qish kitobi. 4-sinf. T.: 2013, "Yangi yo'l roligraf serviz. 44-70 b.

tanlovlarni o'tkazish hamda badiiy kechalarni tashkil etish yaxshi natijalarga olib keladi. Masalan, amaliy mashg'ulotda "Tozalik sog'lik garvi", "O'zbekiston – go'zal maskan" ko'rgazmasini tayyorlash; mushoira o'tkazish; erkin mavzuda "Inson go'zalligi nimada?" mavzusida munozara tashkil etish tavsiya qilinadi. Mazkur tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish uchun o'quvchilarning o'zlari ixtiyoriy ravishda guruh shaklida ishlashlari mumkin.

Biz ushbu ishlar doirasida darsdan so'ng, 4-sinf o'quvchilari bilan birgalikda "Inson go'zalligi nimada?" nomli davra suhbatini tashkil etdik. Suhbat boshlanishidan oldin o'quvchilar bilan birgalikda sinf xonasi tozaligi nazoratdan o'tkazdik. Sinf xonasidagi gullarga suv qo'yib, jihozlarni tartibga keltirdik. O'quvchilarga ust-boshlarini tartibga keltirib olishlari va sochlariga alohida e'tibor qaratishlarini tayinladik. O'quv qurollarini ham chiroyli qilib joylab olishlarini alohida o'quvchilarga tushuntirdik. Bu ishlardan maqsad o'quvchilarni tashkil etiladigan davra suhatiga tayyorlash edi. Davra suhbatini qiziqarli tus olishi uchun unga sinf rahbarlarini ham taklif etdik. Bu davra suhbatida sinf rahbarlari tashabbusni qo'lga olib, o'quvchilarni muzokaraga chorladilar. Ularga mavzu doirasida qiziqarli savollar bilan murojaat qilishdi. O'quvchilar suhbat jarayonida o'zlarining fikr mulohazalarini erkin bayon etishga harakat qildilar, go'zallikning inson salomatligi va kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini suhbatdan oldingi ishlar asosida yana bir bor kuzatdilar.

Ushbu tadbirlar tugagach, yakunlovchi tadbir tashkil etilib, o'quvchilarga "Barkamol inson" sifatlarini ajrata olishlariga doir bir nechta mashqlar taqdim etildi. Birinchi mashqda o'quvchilar barkamol insonning sifatleri ko'rsatilgan ro'yxatni tuzish va ularni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra tartiblash (raqamlash) vazifasi topshirildi. Javoblar tahlilining ko'rsatishicha, o'quvchilar tomonidan quyidagi sifat (xislat)larning barkamol shaxs qiyofasida aks etishi muhim ekanligi qayd etildi:

- jismoniy sog'lom;
- odobli va axloqli;
- bilimli;

- mehnatsevar;
- vatanparvar;
- mehribon;
- saxiy;
- ona tabiatni asraydigan va boshqalar

O'quvchilar tomonidan birinchi topshiriq bajarilgach, ularga barkamol inson qiyofasida aks etuvchi va o'quvchilar tomonidan ikkinchi darajali deb baholanuvchi yuoridagilarning sifat (xislat)larni belgilash vazifasi berildi. Bu topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilar tomonidan quyidagi sifat (xislat)lar qayd etildi: kuchli, aqilli, ilmi, tadbirkor, elparvar, saxiy, oqibatli va boshqalar.

Yuqoridagi tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilar faolligini oshiruvchi turli didaktik vositalar, o'yinlar, sodda ko'rinishdagi krasvordlardan samarali foydlanildi.

Yuqorida qayd etilgan pedagogik vazifalar tajriba-sinov ishlari davrida tajriba guruhiga biriktirilgan respondent-o'quvchilar tomonidan muvaffaqiyatli tashkil etilishiga erishildi. Mazkur fikrni tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichi natijalari ham tasdiqlaydi. Tajriba natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar respondent-o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan test topshirig'ini tahlil etish asosida hosil qilindi.

Natijalar aniq bo'lishi uchun tajriba boshida o'tkazilgan sinov tajriba yakunida ham qo'llab ko'rildi. Bunda o'quvchilarning javoblariga ko'ra III darajaga ajratildi.

III daraja – o'quvchilarda barkamol inson tushunchasiga doir tushunchalarning (bilimlar) past darajada shakllanganligi - bu quyi daraja (3 ball) deya belgilandi;

II daraja – o'quvchilarda barkamol insonga doir tushunchalarning yetarli darajada shakllanganligi bo'lib, bu holat o'rta daraja (4 ball) deya belgilandi;

I daraja – o'quvchilarda barkamol insonga xos tushunchalarning yuqori darajasida shakllanganligi bo'lib, bu holat yuqori daraja (5 ball) deya belgilandi.

Qayd etilgan darajalar reyting nazoratining quyidagi ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirildi:

- 1) 100 foizdan 86 foizgacha – 5;
- 2) 85,9 foizdan 71 foizgacha – 4;
- 3) 70,9 foizdan 56 foizgacha – 3;
- 4) 55 foizdan past – 2 (attestatsiya qilinmaydi).

Natijalar nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba yakunidagi umumiy ko'rsatkichlari quyidagicha ekanligini ko'rsatdi:

Yakuniy natijalar

Guruhlar	O'quvchilar soni (nafar)	Javoblar soni		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	30	8 / 21	13/7	9/2
Nazorat	29	7/9	12/ 13	10/7

Izoh: (8/21) kasr sur'ati (8) tajribagacha, maxraji (21) tajribadan keyingi raqam.

Har bir guruhda tajriba ishlarini olib borishning usuli pedagogik tajriba boshidayoq rejalashtirilib olindi, ya'ni tajriba guruhlarida o'qish, o'rganish mavzu nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, tanlangan maxsus materiallar asosida ish olib borildi. Nazorat guruhlarida esa an'anaviy dasturlarga asoslangan holda davom ettirildi. Tajriba guruhlar uchun tavsiya etilgan reja, dastur va nazoratdagi guruhlar uchun tuzilgan reja va dasturdan bir muncha farq qilibgina qolmay, balki yangi tushunchalar, izohli lug'atlardan foydalanishlari bilan ham ajralib turadi. Bu holatda tajriba guruhidagi o'quvchilar biror tushuncha, voqea va xodisalarga munosabatlari yuzasidan fikrlashlari chuqurroq ekanligi bilan farq qiladilar. Nazorat guruhi o'quvchilarining javoblari esa deyarli oldingi javoblari darajasida qolgan. (Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkin).

UCHINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Xalq pedagogikasidagi farzand tarbiyasiga oid g'oyalardan foydalanib, o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda o'qituvchilar asosiy kuch bo'lib, ularni muhim ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish zaruriyati mavjud.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati katta ekanligini hisobga olib, ulardan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda samarali foydalanish ijobiy natijalar beradi.
3. O'quvchilarda barkamol inson sifatlarini shakllantirishda tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllaridan biri tarbiyaviy soatlar va bayram tadbirlari ekanligi tajriba-sinov ishlari yakunida o'z tasdig'ini topdi. Bu tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchilarda vatanga muhabbat va sadoqat, ona tabiatni asrash, mehnatsevarlik, hamjihatlik, kattalarga hurmat kabi ijobiy sifatlarni shakllantirish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

Hukumatimiz va Prezidentimiz I. Karimovning yosh avlodga bo'lgan e'tibori davlatimiz mustaqillikka erishgan kunidan boshlandi, desak adashmaymiz. Shu sababdan Prezidentimizning ushbu muammoga bag'ishlangan qator kitoblari, risolalari yaratildi. Shuningdek, yosh avlodga munosib ta'lim-tarbiya berish, sharoit yaratish va ularni qo'llab quvvatlash borasida mislsiz ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ko'plab qonun va farmonlar qabul qilinib, ularning ijrosi ta'minlandi. Mamlakatimiz farovonligi va abadiyligi uchun barkamol avlodni tarbiyalash zaruriyati mavjud ekan, bu o'ziga xos tarzda ta'lim tizimi oldiga muhim vazifalarni keltirib chiqardi. Oila tarbiyasidan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan bosqich o'quv dasturlariga ta'lim oluvchilarni barkamol insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan mavzular kiritildi va o'quvchilarning ongiga singdirildi.

Bu kabi ishlarimizni amalga oshirishda bizga xalqimizning boy og'zaki ijodi, buyuk alloma, mutafakkirlarimizning ma'naviy merosi, yozma manbalari qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga keldik:

1. O'rganilgan ilmiy, pedagogik va badiiy manbalar shundan dalolat beradiki, barkamol avlodni shakllantirishda xalq pedagogikasidagi farzand tarbiyasiga oid g'oyalardan foydalanish dolzarb pedagogik muammo hisoblanib, uni shakllantirish tizimini ishlab chiqish Respublika ta'lim tizimi oldida turgan asosiy masallardan biri ekanligi tadqiqotda o'z isbotini topdi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, maqol va ertaklarning ahamiyati katta ekanligi olib borilgan nazariy tahlil jarayonida kuzatildi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun uning manba va vositalarini belgilash zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

4. Xalq pedagogikasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos tizimini vujudga keltirish zarurligi kuzatilmoqda.

5. Xalq pedagogikasidagi farzand tarbiyasiga oid g'oyalardan foydalanib, o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda o'qituvchilar asosiy kuch bo'lib, ularni muhim ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirish zaruriyati mavjud.

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishda shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati katta ekanligini hisobga olib, ulardan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda samarali foydalanish ijobiy natijalar beradi.

7. O'quvchilarda barkamol inson sifatlarini shakllantirishda tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllaridan biri tarbiyaviy soatlar va bayram tadbirlari ekanligi tajriba-sinov ishlari yakunida o'z tasdig'ini topdi. Bu tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchilarda vatanga muhabbat va sadoqat, ona tabiatni asrash, mehnatsevarlik, hamjihatlik, kattalarga hurmat kabi ijobiy sifatlarini shakllantirish mumkin.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov natijalari tadqiqotning ilmiy farazi to'g'riligini asoslash imkonini berdi.

Yuqorida bayon qilingan xulosalar asosida quyidagilarni **tavsiya qilamiz:**

1. Xalq pedagogikasi vositasida o'quvchilarni barkamol insonlar etib shakllantirish maktab –mahalla – oila tizimida tashkil etilishi va bu tizim o'rtasida mustahkam aloqa bog'lanishi zarur.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barkamollik sifatlarini shakllantirishda sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari asosiy kuch bo'lib, ularni zamonaviy va metodik bilimlar bilan qurollantirish zaruriyati mavjud.

3. Dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda barkamollik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llashga erishish maqsadga muvofiqdir.

4. Oilada ushbu muammoga ota-onalar alohida e'tibor qaratishlari, farzandlarining tarbiyasida ota-bobolarimiz o'g'itlari, pandnomalaridan samarali foydalanishlari maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: "Ma'rifat-Madadkor", 2000. – 7-19-b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: "Ma'rifat-Madadkor", 2000. – 20-55-b.
3. Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. (1-4sinflar) T.: 2010, "Yangi yo'l poligraph servisi" 46 b.
4. O'zbekiston Prezidentining 2004 yil 21 maydagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni . Ma'rifat, 2004 yil 22 may.
- 5.Karimov I. A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. –319 b.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, H. Saidov, R.Ahliddinov. – T.: Sharq NMAK. 1999. – 148 b.
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., 2010.
- 10.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.:“O'zbekiston”, 2011, 430.
11. Abduvahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). – T.:Vatan, 1996. – 20 b.
12. Abdullayeva Q., Aliqulova N., Rahmonbekova S. Odobnoma. (2-sinf uchun darslik) . T.: “O'zbekiston”, 2010, 77b.

13. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik /Asqar Mahkam tarjimasi.-T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
14. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.–160 b.
15. Azarov Y.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 67 b.
16. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
17. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari) /Tarj; muqad. va izohlar muallifi Sh.Boboxonov. – T.: O‘zbekiston, 1990. – 199 b.
18. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome’ as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 kitob. 1-kitob /Arabchadan Z. Ismoil tarj. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 550 b.
19. Aliyev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
20. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar /Oliy o‘quv yurtlarining pedagogik ixtisosliklari uchun o‘quv qo‘llanma.-Almati: Nurli beyne, 2004.-201 b.
21. Amir Temur o‘g‘itlari (to‘plam)/Tuzuvchilar: B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro‘z, 1992. – 64 b.
22. Barotov Sh. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari /Maktab o‘qituvchilari va pedagogika institutlari talabalari uchun qo‘llanma.– T.: O‘qituvchi, 1995. – 56 b.
23. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl.asarlar.– T.: Fan, 1 t. 1968. – 488 b.
24. Buyuk siymolar, allomalar (O‘rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar) / Nashrga tayyorlovchi M.M. Xayrullayev.-T.: Xalq merosi, 1-k. 1995. – 104 b.
25. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni /Maxsus muharrir M.Qarshiboyev. – T.: Ma’naviyat, 1999. – 240 b.
26. Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari /Mas’ul muharrir: D. A.Alimova. tarj.: Sh.Vohidov. – T.: Ma’naviyat, 1998. – 112 b.

27. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri /Tuzuvchi M.Mahmudov. - T.: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
28. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2005. – 248 b.
29. Hasanboyeva O. Inoyatova M., Neʼmatova A., Odoynoma. 2-sinf uchun darslik. T.: “Oʻqituvchi” 2012, 76 b.
30. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., Turopova M. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 2002. – 112 b.
31. Holiqova M., Ergasheva Sh. Odoynoma. 3- sinf uchun darslik. T.: “Yangi yoʻl roligraf serves”, 2012.- 93 b.
32. Holiqova M., Ergasheva Sh., Odoynoma. 4-sinf uchun darslik. “Yangi yoʻl roligraf serves”. 2011,- 92 b.
33. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma).– T.: Xalq merosi, 1-jild. 1993. – 3-182-b.
- 34.Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika/ Oʻquv qoʻllanma.-T.: Fan, 2004. 182 b.
35. Imomnazarov M. Milliy maʼnaviyatimiz nazariyasiga chizgilar /Masʼul muharrir: N.Komilov. – T.: Sharq NMAK, 1996. – 66 b.
36. Javliyev T. Anʼanalar hayot sabogʻi.- T.: Oʻqituvchi, 1992.- 87 b.
37. Jalolov A. Oʻzbekiston mustaqillik, maʼnaviyat va mafkura.-T.: Maʼnaviyat, 2004.- 189 b.
38. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti.- T.: Oʻqituvchi, 1994.- 256 b.
39. Kaykovus, Qobusnoma /Nashrga tayyorlovchi: S.Dolimov. – T.: Oʻqituvchi, 1986. – 168 b.
40. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, K.1. 1996. – 272 b.
41. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati /Fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. – T.: Xalq merosi, 1994. – 112 b.
42. Mavlonova R. Toʻrayeva O, Holiqberdiyev K. Pedagogika. - T.: Oʻqituvchi, 2002. – 384 b.

43. Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar /Tuzuvchi A.Zunnunov. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 271 b.
44. Ma’naviyat darslari (o‘rta maktablarning X-XI sinflari uchun majmua) /Tuzuvchi: S.Nishonova. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 320 b.
45. Mahkamov U.I. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 134 b.
46. Mahkamov U.I. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: Fan, 1995. – 200 b.
47. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida). – T.: Sharq NMAK, 2001.–160 b.
48. Mahmudov S. O‘zbek udumlari.-T.: Fan, 1993.- 218 b.
49. Mahmudov T. Avesto haqida.- T.: Guliston, 2000.- 63 bet.
50. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat.- T.: Sharq, 2001.-160 b.
51. Matjonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X. Va boshqalar. –T.:Yangi yo‘l polograf servis, 2013.-240 b.
52. Ming bir hadis.- T.: Movarounnahr, 1998.- 144 b.
53. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
54. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at /Mualliflar: M.Abdullayev, M.
55. Abdullayeva, G. Abdurazzoqova va boshq. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda. – T.: Sharq NMAK, 2000. – 320 b.
56. Mo‘minov I.M. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – T.: Fan, 1993. – 56 b.
57. Navoiy, Alisher. Mahbub-ul qulub (Qalblar sevgilisi). – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 111 b.
58. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. – 224 b.
59. Oripova N., Muhammadiyeva M., Yarmanova Y. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. –Qarshi. Nasaf, 2013.-52 b.
60. Ochilov M. Muallim – qalb me’mori. Saylanma.– T.:O‘qituvchi, 2001. – 432 b.
61. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. T.: O‘qituvchi, 1987. – 134 b.

62. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar /O'quv qo'llanma. - Qarshi: Nasaf, 2000. – 80 b.
63. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 207 b.
64. Pedagogika /A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri astida. – T.: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
65. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Protsess vospitaniya /Uchebnik dlya stud.ped.vuzov. V 2 kn. – M: Vldos, Kn. 2. 1999. – 256 s.
66. Qodirov B.G'. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. – T.: Mehnat. 2001. – 195 b.
67. Qur'oni karim. Tuzuvchi.Shayx Abdulaziz Mansur.-T.: “Toshkent islom universiteti. 2007. 617 b.
68. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: O'zMU OPI, 2003. – 68 b.
69. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b.
70. Temur tuzuklari /Forschadan H.Karomatov tarjimasi. – T.: Sharq NMAK, - 144 b.
71. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.X. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 206 b.
72. Tulenov J.T. Hayot falsafasi. – T.: O'zbekiston, 1993. – 319 b.
73. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. – T.: 1992. – 128 b.
74. Umarov E., Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari. – T.: Sharq NMAK, 2005. – 128 b.
75. Umumiy psixologiya /Pedagogika institutlari uchun darslik. Petrovskiy A.V. va boshqalar. – T.: O'qituvchi, 1992. – 512 b.
76. Vatan tuyg'usi /Tuzuvchilar: A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev. – T.: O'zbekiston, 1997. – 439 b.
77. Yo'ldoshev J.G'. , Hasanov S. “Avesto”da axloqiy-ta'limiy qarashlar / Akad. I.O.Obidov tahriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1992. – 29 b.

78. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari /Qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
79. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O‘qituvchi, 1994.- 119 b.
80. Yo‘ldoshev J. Ta’limimiz istiqlol yo‘lida.-T.: Sharq, 1996.- 223 b.
81. Yo‘ldoshev M. Madaniyat insonni ulug‘laydi // Muloqot.-2000.-№ 5.–19-21-b.
82. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O‘qituvchi, 1994.- 119 b. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 2, 2001.- 703 b.
- 83.Yusupov E.Inson kamolotining ma’naviy asoslari.–T.:Universitet,1998. –184 b.
84. Ziyomammedov B. Ilm hikmati (Olim bo‘lish sirlari). – T.: Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti, 1999. – 88 b.
85. Zunnunov A. Pedagogika tarixi /Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Fan, 2004. – 335 b.
86. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O‘qituvchi, 1995.- 478 b.
87. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. T.: O‘qituvchi, 1999.- 478 b.
88. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-T.: Tom 1, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- 679 b.
89. O‘zbek xalq maqollari. - T.: Sharq, 2003.- 510 b.
90. G‘afforova T.G‘., Qurbonov A., Godfri YE. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari /Oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2003. – 112 b.
91. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: “Nasaf”, 2009, 162 b.
- 92.G‘afforova T., Sh. Nurullayeva, Mirzahakimova Z. O‘qish darsligi. 2-sinf. -T.: Sharq 2012. 257b.
93. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya I kitob, T.: 2004 y,-210 b.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.kutubxona.uz

ILOVALAR

Tajriba-sinov ishlari avvalida 4-sinf o'quvchilariga murojaat qilingan og'zaki savollar

1. Maqol nima?
2. Qanday mavzuga oid maqolarni yoddan bilasiz?
3. Odob-axloqqa doir maqollardan aytingchi ?
4. Qanday ertaklarni tinglashni yoqtirasiz?
5. Qanday ertaklarni bilasiz, misol keltiring ?
6. Sizningcha, kimlar ko'proq maqol ishlatadi?
7. Ota-ona haqidagi maqollardan ayting?
8. Mehnatsevarlik haqidagi maqollardan ayting?
9. O'qish kitobidagi maqollarni yod olganmisiz, misol keltiring?
10. Ota-onangiz sizga ertak yoki maqol kitoblarini sovg'a qilishadimi?
11. Sizga kim ko'proq ertak aytib beradi?

ILOVA-2

“Gullar bazmi” ertaligi

Ertalikning maqsadi: boshlang‘ich sinf o‘quchilarida ona tabiat, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabat hamda ma’naviy-axloqiy, estetik dunyoqarashni tarkib toptirish, go‘zallikni his etish ko‘nikmasini shakllantirish.

(Sahna ko‘rinishi. Maktab bog‘i tasviri. Bog‘ning hamma joyida chiroyli, turfa xil gullar ochilib turibdi. Atrof yam-yashil ko‘rinishga ega. Sahna atrofiga gullarning go‘zalligi aks ettirilgan plakatlar ilingan)

Boshlovchi: Gullarni parvarishlash maqsadida Gulnoza va Rayxon chelakda suv ko‘tarib kirib kelishdi.

Gulnoza – Voy, Rayxon gullarimizga qara, biram chiroyliki, ularga qaragan sari zavqing keladi.

Rayxon– Ha, bu mehnatimiz samarasi. Voy, mana bu joydagi gullarni kimdir uzib, payxon qilibdi-mi?

Gulnoza –Bechora gullar, bu kimning ishi ekan?

Boshlovchi: Shu payt uzoqdan Soqivoy ko‘rinibdi. U gullarni ayamay uzar, oyog‘i tagiga olib yanchardi.

(Qizlar baravariga)

Hoy, nima qilyapsan? Axir ularning ham joni bor. Bechoralarga rahming kelmaydimi?

Soqivoy: Qo‘ysangizlarchi, bular oddiy gullar-ku!

Qizlar: Nega endi? Bu gullar atrof-muhitni tozalaydi, ham o‘zining go‘zalligi bilan hamma joyni bezab turadi. Seni bu gullarni uzishga, ularga zarar yetkazishga haqqing yo‘q.

Soqivoy: nima uchun? Men xohlagan ishimni qilaman. Mana, mana.

Boshlovchi: deb Soqivoygullarni uza boshlabdi.

(Shunda birdan momaqaldiraq bo‘libdi.“Bahor vasli” musiqasi yangrab, davraga

Tabiat momo kirib kelibdi)

Boshlovchi: Tabiat momo Soqivoyga qarab:

Gullarning ham joni bor,
Ozor bersang og'riydi.
Axir gullar ona yer
Havosin tozalaydi.

Soqivoy esa:

Ey, qo'ysangizchi Tabiat momo
Endi shu gul uzishni ham qilmang muammo.

(Tabiat momo qo'lidagi sehrli tayoqchasi bilan gullarga jon kirita boshlabdi.
Chiroyli musiqa yangraydi. Davraga turfa gullarni ifodalavchi kiyimlarda gullar
raksi ijro etilib, gullar kirib keldi)

Atirgul:

Bu Soqivoy har kuni
Gul bandimni uzadi.
Uzgani yetmaganday,
Barglarimni ezadi.

Chinnigul:

Soqijonning dastidan
Holim bo'ldi juda tang.
Ana ishonmasangiz
Boshqa gullardan so'rang.

Binafsha:

Men Soqivoy dastidan,
Turmayman hech ochilib.
O'zi faqat bahorda,
Kelaman mehmon bo'lib.
(Boshqa gullar ham baravariga)
Biz bezormiz Soqivoydan,
Kirmasin hech gulzorga.

Shunda bizlar yayrab- yashnab,
Aylanamiz chamanzorga.

Tabiat momo.(jahli chiqib)

Ko'rmagandim bunday holni,
Bu Soqivoy qanday bola,
Ozor berib gullarga,
Nimalarni qilib hayol,
Botirman deb o'ylaganda,
Yoki kuchin ko'rsatganmi?
Bir g'alamis o'rgatganmi?

(Gullar birgalikda)

Biz gullar bu zaminni,
Go'zallikka chulg'aymiz.
Bizlarda bor ko'p xislat,
Dardga shifo bo'lgaymiz.

Boshlovchi: Soqivoy qilgan ishidan uyalib, yerga qaradi va:

Endi gulni uzmayman,
Yanchishga qo'l cho'zmayman.
Kechiring meni do'stlar,
Safingizga qo'shinglar
Shu ondan yomonlikdan
O'z-o'zimni tiygayman
Ezgu ish, yaxshilikni
Hozirdan boshlagayman.

Tabiat momo (*xursand bo'lib*) Barakalla.

Gullar: biz endi Soqivoyni o'zimizga do'st deb bilamiz.

Gulnoza –ko'rdingmi Soqivoy, gullarning ham joni bor.

Payxon – ham bizlarga foydasi bor. Kel, ularni qilmaylik xafa.

Soqivoy –Qizlar aslida men xona gullarini o'stirishni hohlayman, ammo negadir men ekkan gullar sira o'smaydi, shu bois boshqalar ekkan gullarni ochilib

turganini ko'rsam, toqat qila olmasdim. Ayni damda qilgan ishimning xato ekanligini anglab yetdim, boshqalar mehnatini qadrlashni, hurmat qilishni o'rgandim.

Gulnoza- Soqivoy, demak senga xona gullarini parvarish qilish haqida ma'lumot va ko'rsatmalar kerak ekan.

Rayxon- unda seni gul sotuvchisi yoniga olib boramiz.

Boshlovchi- shunday deya qizlar Soqivoyni gul dukaniga olib borishibdi.

Rayxon, Gulnoza, Soqivoy –Assalomu-alaykum amakijon!

Gul sotuvchisi i- Vaalaykum-assalom bolalar, kelinglar bizdan qanaqa xizmat. Sizlarga qanday xona gullari kerak?

Soqivoy - kechirasiz, amakijon, bizlarga xona gullarini parvarish qilish haqida ma'lumot kerak edi.

Gul sotuvchisi – Bajonudil, bu savollaringizga javob berishga harakat qilaman.

Boshlovchi- Gul sotuvchisi bolalarni xona gullari bilan nomma-nom tanishtirib, ularni qanday parvarish qilish haqida batafsil ma'lumot berdi.

Gul sotuvchisi- xo'p! bolalar men aytgan ma'lumotlar yodingizda qoldimi? keling bir takrorlab ko'ringchi? gul parvarish qilishni qay darajada o'zlashtirib olibsiz. Buning uchun men sizlarga gullarning nomi yashiringan krossvordni beraman, siz uni yechishga harakat qilib ko'ringchi?

Bolalar – biz tayyormiz.

			1		2		3		4		6	7
X	I	T	O	Y	A	T	I	R	G	U	L	I
									5			

Javoblar:

1. *Yorongul*
2. *Sarsabil*
3. *Liliya*
4. *Begoniya*
5. *Aloye*
6. *Lola*
7. *Fikus*

Gul sotuvchisi - xo'sh, bolalar qanday xona gullari bor ekan, ularning nomlarini takrorlangchi?

Bolalar- kaktus, begoniya, yorongul, fikus, kameliya, lola, fialka, xitoy atirguli, liliya, aloye, sansevara va boshqalar.(bolalar galma-gal sanashadi)

Gul sotuvchi- qaysi donishmandlarimiz asarlarida xona gullari haqida ma'lumotlar keltirilgan?

Rayxon- Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi allomalarimiz asarlarida xona gullarining nomlari, tasviri va shifobaxsh xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Gul sotuvchi –xona gullari qanday yo'llar bilan ko'paytirilar ekan?

Soqivoiy- begoniya, yorongul, fikus, kameliya qalamchalari orqali ko'paytiriladi.

Gulnoza- lola va liliyalar esa piyozboshidan ko'paytiriladi.

Gul sotuvchisi - barakalla bolalar, endi, kaktus haqida aytgan ma'lumotlarimni takrorlangchi?

Soqivoy- bu gul quruqlikni yaxshi ko'radi, uning vatani janubiy o'lkadir ya'ni Amerika va Meksika hisoblanadi. Kaktuslar-kaktusdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik semiz poyali o'simlik.

Rayxon- uning shakli turli xil ko'rinishga ega bo'lib, tashqi tomondan tikanak bilan qoplangan. U bir necha guruhlariga bo'linadi: opunsiyalar-dumaloq yoki ovalsimon yassi, bir-biriga birikib o'sgan tanadan iborat.

Gulnoza- sereuslar-tanasi yo'g'on, ustunsimon etdor, mamileyariyalar-

so‘rg‘ichsimon, chiroyli gullaydi. Kaktuslarning bundan boshqa ham turlari mavjud bo‘lib ular suvni uncha xushlashmaydi. Kaktuslarni kompyuterlar oldiga nurlardan saqlanish uchun qo‘yiladi. Ularni yorug‘lik yaxshi tushadigan joylarda ustirish tavsiya etiladi.

Gul sotuvchisi – xona gullarining yaxshi o‘ssishi va rivojlanishi uchun eng zarur narsa nima ekan?

Bolalar- quyosh nuri va yorug‘lik, deya baravariga javob berishdi va sahna yanada yorug‘lashdi. (“Quyoshjon”ashulasi yangraydi va sahnada boshlariga gulchambarlar taqqan qizaloqlar raqs ijro etishadi)

Tabiat momo - barakalla qizlarim, ajoyib raqsingiz bilan dillarni xushnud qildingiz. Endi sizlarning zukkolik darajangizni ham sinab ko‘rsam qarshimasmisiz.

Qizlar – yo‘q aksincha, biz bundan juda xursand bo‘lamiz

Ustozlardan olgan ilmni amalda sinab ko‘ramiz.

Tabiat momo – Bolalar iltimos, elektron doskani olib kelinglar. (Boqivoy va qizlar sahnaga ikkita elektron doska olib keladilar. Tabiat momo doskalarga atirgul so‘zini yozadi va sinkveyn metodi shartini tushuntiradi. Qizlar ikki guruhga bo‘linib, shartni bajarishga kirishadilar. Shart quyidagicha bajarilishi mumkin.)

Atirgul (**ot**)

Xushbo‘y, chiroyli (**sifat**)

Hid taratadi, kayfiyatni ko‘taradi, havoni tozalaydi (**fe‘l**)

Qizlar qizil atirgulga o‘xshaydi (**ibora**)

Gul (**sinonim**)

Tabiat momo - rahmat sizlarga bolajonlar, bugun siz meni bilimdonligingiz, zukkoligingiz, donoligingiz, chiroyli raqs va qo‘shiq-laringiz va meni asrashga bo‘lgan ishtiyoqingiz bilan xursand qildingiz.

Endi sizlar bilan xayrlashadigan vaqtim keldi.

Boshlovchi: Aziz bolajonlar hamda hurmatli tadbir qatnashchilari shuning bilan birga bugungi “Gullar bazmi” nomli tadbirimiz o‘z poyoniga yetdi.

Barchamiz Ona tabiatni asraylik, zero:

Tabiatning, go‘zalligi, sofligi,

Bizga kerak qanchalar,

Insoniyat taqdiri

Bog‘liq erur shunchalar .

Shunday ekan biz barchamiz ona tabiat in’omlarini ko‘z qorachig‘iday
asrashimiz lozim. Xayr sog‘ bo‘linglar!

4- sinf o'quvchilariga murojat qilingan test savolari

1. Sizningcha barkamol inson qanday fazilatlar egasi bo'lishi kerak?

- a) mehnatsevar, botir va chaqqon;
- b) saxiylik, bahrikeng, oliyjanob;
- v) odobli, mehribon, sabr-qanoatli;
- g) barcha javoblar to'g'ri

2. Odobli bola qanday bo'lishi kerak?

- a) kattalarni hurmat qilish kerak;
- b) bilimli, aqlli bo'lishi kerak;
- v) boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak;
- g) hammasi to'g'ri.

3. Axloqli bo'lish uchun nima qilish kerak?

- a) bilimli bo'lish kerak;
- b) kishilarga yaxshi munosabatda bo'lish;
- v) odobli bo'lishi kerak.
- g) hammasi to'g'ri.

4. Assalomu-alaykumning ma'nosining nima?

- a) kattalarni hurmat qilish;
- b) sizga sog'liq tilayman;
- v) muallimlarning hurmat qilish.
- g) hammasi to'g'ri.

5. Kim birinchi salom berish kerak?

- a) kattalar kichiklarga salom berishi kerak;
- b) kichiklarga salom berish kerak;
- v) ota-onalar bolalarga salom berish kerak.

6. “Yaxshi bo‘lsang-o‘zarsan, yomon bo‘lsang, to‘zarsan”- iborasi xalq og‘zaki ijodining qaysi turiga mansub?

- a) maqol;
- b) tez aytish;
- v) ertak;
- g) matal.

7. Odob axloqli bolaning fazilatlarining ko‘rsating?

- a) mehnatkash, halol, tortinchoq;
- b) bilimli, qizg‘anchiq, mehmondo‘st;
- v) shirinso‘z, saxiy, mehnatkash.

8. Kitoblaringizni qadrlaysizmi, nima uchun?

- a) yangi bo‘lganligi uchun;
- b) kitob orqali bilimga ega bo‘layotganim uchun;
- v) barcha javoblar to‘g‘ri.

9. Insonparvarlik deganda nimani tushunasiz ?

- a) insonlarga yordam berish;
- b) mehnatkashlik;
- v) ona-tabiatni asraydigan;
- g) yaxshilik qilish.

10. Odobnoma darsligidagi qaysi mavzu sizga ko‘proq yoqadi?

- a) vatanparvarlikka oid
- b) odob-axloqqa oid
- v) do‘stlik haqidagi mavzular
- g) barchasi